

## Muqaddima

Takallum ahli xirmanining xo'sha chini va so'z, durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalibi nag'ma saroyi, yaKjni Alisher almutaxallas bin-Navoiy... mundoq arz qilurkim, so'z durredurkim, aning darKjyosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kuldur. Andoqki, darKjyodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig'a ko'ra zohir bo'lur. Ko'nguldin dog'i so'z durri nutq sharafiq'a sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko'rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatig'a boqa intishor va ishtihor topar. Gavhar qiymatig'a nechukki, marotib usru ko'pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo'lur.

## QitKja:

Injuni olsalar mufarrih uchun,  
Ming bo'lur bir diramg'a bir misqol.  
Bir bo'lur hamki, shah quloqqa solur:  
Qiymati mulk, ibrasi amvol

So'z durrining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatrodur.  
Andoqki, sharifidin to'lgan badang'a ruhi pok etar, kasifidin hayotliq tang'a zahri halok xosiyati zuhur etar.

## QitKja:

So'z gavhardurki, rutbasining  
Sharhidadur ahli nutq ojiz.  
Andinki erur xasis muhlik,  
Ko'rguzgucha durur Masih muKjjiz[1].

Va bu so'zning tanavvui taaqquldin nari va tasavvurdin tashqaridur. Agar mubolag'asiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, etmish ikki navKj bila taqsim toparida xud hech so'z yo'qturki, etmish ikki firqa kalomig'a dalolat qilg'ay; ammo ulcha tafsiliydur. Uldurkim, rubKji maskunning etti iqlimidan har iqlimda necha kishvar bor va har kishvarda necha shahr va qasaba va kent va har dashtda necha xil-xil sahronishin ulus va har tog'ning qo'llarida va qullalarida va har bahrning jazoyirida va savohilida ne tavoyif bor[2].

Har jamoat alfozi, o'zgalaridin va har guruh iborati yonalaridin mutag'ayyir va birnecha xususiyat bila mutamayyazdurki, o'zgalarda yo'qtur.

Andoqki, tuyur va bahoyim va suboKjning tillarikim, har-birining o'zgacha xurush va takallumlari bor va g'ayri mukarrar navo va tarannumlari. Ammo chun alfoz va iboratdin murod maKjnidur va mazkur maxluqtdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so'z aning so'zidadur va takallum aning kalomida borur.

Emdi kelduk so'z bayonig'a va kalom dostonig'a: Muncha mutanavviKj shahr va quro va jibol va sahro va besha va darKjyo xalqikim, bitildi va tanavvuKj va tag'ayyurini sharh etildiki, majmuida maKjni adosida alfoz tilga kelur va ul alfozidan maKjni fahm bo'lur.

Barchasidin arab tili fasohat oyini bila mumtoz va balog'at tazKjyini bila muKjjiza tirozdurkim, hech takallum ahlining munda daKjvosi yo'qtur va so'zi sidq va ishi taslim-o'qdurkim, maliki allom jalla va aloning kalomi muKjjiz nizomi ul til bila nozil va rasul (alayhis-salavot vas-salom)ning ahodisi saodat anjomni ul lafz bila vorid bo'lubdur. Va avliyoyi kibor va mashoyixi olyi miqdor (qaddasallohu asrorahum) ko'proq haqoyiq va maorifki surubturlar va maoniy zebolarin taqrir libosig'a kiyurupdurlar ul farxunda iborat va ul xujasta alfoz va ishorat bila voqiKj bo'lubtur...

Mundin so'ngra uch navKj tildurkim, asl va muKjtabardur va ul tillar iborati gavhari bila qoyilining adosig'a zevar va har qaysining furui bag'oyat ko'ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki, Nuh payg'ambar (salavotullohu alayh)ning uch o'g'lig'akim, Yofas va Som va Homdur etushur. Va bu mujmal tafsili budurki, Nuh (alayhissalom) to'fon tashviridin najot va aning mahlakasidin hayot topti, olam maKjmurasida bashar jinsidin osor va inson navKjidin namudor qolmaydur erdi. Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar Eron va Turon mamolikining vasatida voli qildi va Homniki, Abul-hind debdurlar Hindiston bilodig'a uzatti. Va bu uch payg'ambarzoda avlod va atboi mazkur bo'lg'on mamolikda yoyildilar va qalin bo'ldilar[3].

Va Yofas o'g'lonniki, Abut-turkdur, tarix ahli ittifoqi bila debdurlarki, nubuvvat toji bila sarafroz va risolat mansabi bila qardoshlaridin mumtoz bo'ldi. Va uch tilki, turkiy va forsiy va hindiy bo'lg'ay, bu uchovning avlod va atboi orasida shoyiKj bo'ldi... Chun arabiyl til va maqol bila kalom va hindiy alfoz bila muzaxrafoti nofarjom, biri g'oyati sharaf va ulvi manziladin va biri nihoyati nahusat va dunuvvi martabadin oradin chiqtilar. Qoldi turkiy alfoz bila maqsud adosi va forsiy iborat bila kalom maKjnosti. Andoq malum bo'lurki, turk sortdin tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofrok va pokroq maxluq bo'lubtur va sort turkdin taaqqul va ilmda daqiqroq va kamol va fazl fikratida amiyqroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin va sortlarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur. Va lekin tillarida kamol va nuqson haysiyatidin fohish tafovutlardurki, alfoz va iborat vazKj qilurda turk sortqa foyiq kelibdur va o'z alfozida ishorat, iboratig'a maziyatlar ko'rguzupturki, o'z mahalida inshoollo mazkur bo'lg'ay. Yana turkning muloyamati tabKjining sortdin ortug'lug'ig'a dalile mundin vozihroq va shohide mundin loyihiroq bo'la olurmukim, bu ikki toifaning yigit va qarisi, balki uluqdin kichik borisi orasida ixtilot alas-saviyadur. Har miqdorki, bu birining u biri bila amizish va guftuguzori bor, ul birning ham bu bir

bila hamoncha takallum va guftori bor. Va sort orasida ahli tabKj va donish va zumrai ilmu zihn va biyinsh ko'proqdur. Va gurk elida ajlof va soda el sortdin ziyodadur. Ammo turkning ulug'din kichigiga deginch va navkardin begiga deginch sort tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, o'z xurd ahvolig'a ko'ra aytaodurlar, balki baKjzi fasohat va balog'at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ashKjor va shirin guftor zohir qilurlar, ammo sort ulusining arzolidin ashrofig'acha va omisidin donishmandig'acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg'onning maKjnisin ham bilmalar.

Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o'rganib so'z aytsa ham har kishi eshitsa bilur va aning sort ekanini fahm qilur va ul mutakallim o'z tili bila o'z rasvolig'ig'a o'zi iqror qilg'ondekdur. Va turkning asli xilqatda sortdin tabKji muloyimroq erkanga mundin bulKjajabroq tonug' yo'qdurki, hechqaysi muning muqobalasida dam ura olmaslar va sort biajmaihim agar turk iborati adosida ojizdur, muhiq ham bor. Nevchunki, turk alfozi vozii usru ko'p vaqtda mubolag'a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vazKj qilibdurki, sohib vuquf kishi to zohir qilmas, inonsa ham bo'lmas[4].

Andoqki: quvormoq va quruqshamoq va usharmak va jiyjaymoq va o'ngdaymok va chekrimak va do'msaymoq va umunmoq va o'sannoq va itirmak va egarmak va o'xranmak va toriqmoq va aldamoq va arg'adamoq va ishastmak va iglanmak va aylanmoq va erikmak[5] va igranmak va ovunmoq va qistamoq va qiyynamoq va qo'zg'almoq va sovrulmoq va chayqalmoq va devdashimoq va qiyamanmoq va qizg'anmoq va nikamak va siylanmoq va tanlamoq va qimirdamoq va serpmak va sirmamak va ganorgamak va sig'riqmoq va sig'inmoq va qilimoq va yolinmoq va munqlanmoq va indamak va tergamak va tevramak va qinggaymoq va shig'aldamak va singramoq va yashqamoq va isqarmoq va ko'ngrannmak va suxranmoq va siypamoq va qoralamoq va surkanmak va kuymanmak va intramoq va tushalmak va mung'aymoq va tanchiqamoq va tanchiqolmoq va ko'ruksamak va bushurg'anmoq va bo'xsamoq va kirkinmak va sukadamak, bo'smoq, burmak, turmak, tomshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o'tanmak, sizg'urmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, jirg'amoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, kundalatmak, qumurmak, bikirmak, ko'ngurlamak, kinarkamak, kezarmak, do'ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg'anmoq, qichig'lamoq, gantiramak, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, ko'ndurmak, so'ndurmak, suqlatmoq.

Bu[6] yuz lafzdurki, g'arib maqosid adosida tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur. Ko'pi andoqdurki aslo aning mazmunin tafhim qilmoq bo'lmas va baKjziniki, anglatsa bo'lg'ay, har lafz tafhimi uchun necha lafzni tarkib qilmag'uncha bo'lmas, ul dag'i arabiy alfov madadi bila. Va turk alfovida bu navKj lafz ko'p topilur. Masalan, bu mazkur bo'lg'on yuz lafzdin bir nechaga mashg'ulluk qilib sobit qilali, to xasm muqobalada ilzom bo'lunki, o'zgalarni munga qiyos qilsun.

Shuaro akobiridinki, baKjzi "may" taKjrifida mubolag'a qilibdurlar, va bu muKjtaddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida so'z ko'p surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag'a mundin o'tmas. Turkcha nazmda bu matlaKj bordurkim.

Bayt:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o'zumdin boray,

Shart bulkim, har necha tutsgan labo-lab sipqaray.

Oyo! bu sipqaray lafzi mazmunig'a etganda, forsiy sheKjrda ne iloj qilg'aylor. Va tomshimoq ki, g'oyat; zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g'arib maKjni adosida turkchada bu matlaKj borkim,

Bayt:

Soqiyo chu ichib, menga tutar qo'sh:

Tomshiy-tomshiy ani qilay no'sh.

Va bo'xsamoq lafzi adosida turk bu matlaKjni debdurki,

Bayt:

Hajri anduhida[7] bo'xsabmen, bila olman netay,

May ilojimduq qo'pub dayri fanog'a[8] azm etay.

Forsyigo'y turk beklar va mirzodalar bo'xsamoqni forsiy til bila tilasalarki, ado qilg'aylor. Va sheKjrning bino va madori ishqqa evrulur va oshiqliqda yig'lamoqdin kulliyraq va doimiyroq amr yo'qtur va anda tanavvuKj bor: yig'lamsinmoq mazmunidaki, turk mundoq debdurki,

Bayt:

Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,

Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh.

Va ingramoq va singramoqkim, dard bila yashurun ohista "ig'lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur. Turkchada bu matlaKj borkim,

Bayt:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,

Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.

Forsyida bu mazmunki bo'lmag'ay, shoir ne chora qilg'ay? Va siqtamoqkim, yig'lamoqda mubolag'adur, turk bu nav ado qilibdurki,

Bayt:

Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,

Yig'latti meni demayki, siqtatti meni.

Yana biyik un bilaki, iKjtidolsiz oshub[9] bila yig'lag'aylar, ani o'kurmak derlar va turkchada ul maKjnida ou matlaKj borkim,

Bayt:

Ishim tog' uzra harKjon ashk selobini[10] surmakdur.

Firoq oshubidin hardam bulut yanglig' o'kurmakdur.

Chun o'kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz yo'qtur, forsiygo'y shoir muningdek g'arib mazmun adosidin mahrumdur. Yana yig'lamoqning o'kurmaki muqobalasida inichkirmak dag'i bor va ul inchka un bila yig'lamoqdur va ul turk lafzida bu navKj tarkib bila ado topibdurkim,

Bayt:

Charx zulmidaki, bo'g'zumni qirib yig'larmen,

Igorur charx (urar) inchkirib yig'larmen.

Ammo yig'lamoqta hoy-hoy lafzin (adoda) o'zlarin turkiyo'y larga sharik qilibdurlar va bu lafz ham aslan turkiy uslubdur, va faqirning bu maqtai[11] mashhurdurkim,

Bayt:

Navoiy ul gul uchun hoy-hoy yig'lama ko'p,

Ki he deguncha ne gulbun[12], ne g'uncha, ne gul bor!

Yana turk alfozida qimsanmoq va qizg'anmoq ikki g'arib lafzurki, aning adosi bu baytda borki,

Bayt:

Uzoringni ocharg'a qimsanurmen,

Vale el ko'rмагига qizg'anurmen.

Forsiygo'y shuar o mundoq xo'b mazmun adosidin mahjur[13]durlar: Oshiq ayog'ig'a tikan kirmakka alar "xor" lafzi bila taarruz[14] qilibdurlar. Ammo chukurki muKlimroqdur[15], bu lafzlar yo'qtur va bu turkchada mundoq ado topibdurkim,

Bayt:

Cho'kurlarkim, sening yo'lingda tevralmish ayog'img'a,

Chekib ul ko'y gardin surma tortarmen qarog'img'a.

Yana ishq tariqida mahbub nazzorasi tuyassar bo'lsa, oshiqning niyoz yuzidin telmurmagi usru munosib ishdur, va bu lafz alarda yo'qtur, va munungdek lafzlar ham yo'qtur va bu turkchada mundoq diyilibdurki,

Bayt:

To'kadur qonimni har dam ko'zlarin boqib turub,

Kim necha yuzumga boqqaysen yiroqdin telmurub.

Yana turk lafzining mahbub jonibidin yasanmog'i muqobalasida sort lafzida orosta va oroyish lafzi bor. Ammo bezanmak muqobalasida demaydurlar va ul yasanmog'ning mubolag'asidur va ani mundoq debdurlarkim,

Bayt:

Erur bas chu husnu malohat senga,

Yasanmoq, bezanmak ne hojat senga.

Va xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, qabog' derlar, forsiyda bu uzb[16]ning oti yo'qtur.

Masnnaviy[17]da bir jamoat xo'b taKjrifida mundoq deyilibdurkim,

Bayt:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,

Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor.

Yana ishq atvordanakim, ashk va yig'lamoq muqobalasida oh va issig' dam umda[18]dur. Turklar damni choqing'a, ohni ildirimg'a nisbat berib debdurlarkim,

Bayt:

Firoqing ichra ulus o'rtamakka, ey mohim,

Choqin durur damimu ildirim durur ohim.

Sort tilida choqin va ildirimdek mutaayyin va muKjtabar ikki nimag'a ot qo'ymaydururlar va arab tili bila barq va soiqa bila ado qilibdurlar.

Va husn taKjrifida ulug'roq xolg'akim, turklar meng ot qo'yupturlar, alar ot qo'ymaydururlar.

Turk bu taKjrifni bu navKj ado qilibdurkim,

Bayt:

Aningkim, ol enginda meng yaratti,

Bo'yil birla sochini teng yaratti.

Agar[19] birin-birin alfov vazKjidakim, alar taqsir qilibdurlar, taarruz qililsa, so'z izar.

Nevchungi, ko'p voqiKjdur. Yana sheKjorda barcha tabKj ahli qoshida ravshan va majmuKj fusaho ollida mubarhandurki, tajnis va iyhom bag'oit kulliyut. Va bu farxunda iborat va xujasta alfov

va ishoratda forsidin ko'proq tajnis omiz lafz va iygom angez nukta borki, nazmg'a mujibi zeb va ziynat va boisi takalluf va sanKjatdur. Masalan: ot lafziki, bir maKjnisi alamdur, yana

bir maKjnisi markabdur va yana bir maKjnisi amrerdurki, toshni yo'o'qni ot, deb buyurg'aylar. Bu

tajnisida mundoq deyilibdurkim. Bayt:

Chun pariyu hurdur oting, begin,

SurKjat ichra dev erur oting, begin,

Har xadangikim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari oting, begin.

Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xos sasidurki, sortda yo'qtur va

mini tuyug'lerlar. Va muning taKjrifin "Mizonul-avzon" otlig' aruzga bitilibdur, anda qilibidur.

Yana it lafzi va anda dog'i bu navKj uch maKjni bor, andoqli

Bayt:

E raqib, o'zni anga tutsgan ham it,

Bizga rahm aylab uning ko'yidin it.

Garchi bor dezaxcha ishqing shuKjlas,

Bizni o'z ilging bila ul sori it.

Va tush lafzida ham bu navKj uch maKjni bor. Va yana yon lafzida va yoq lafzida ham bu holdur va bu navKj lafziki, anda uch maKjni bo'lg'ay, had va hasr[20]din ko'prak topilur. Va xili lafz ham topilurki, to'rt maKjnisi bo'lg'ay, andoqli, bor lafziki, bir maKjnisi mavjudlug'dur va bir maKjnisi amrdur boruvga va bir maKjnisi yukduru va bir maKjnisi samardur[21]. Va andoq lafz ham topilurki, besh maKjnisi bo'lg'ay: sog'in lafzidekki, bir maKjnisi yod qilmoqqa amrdur va biri sutluk qo'y otidur va ishq masti va majnuni va bemori muqobalasida sog'in desa, har biriga itloq qilsa bo'lur. Yana andoqli, tuz lafziki necha maKjni iroda qilsa bo'lur. Biri tuzki, o'q yo nayzadek nimani derlar- Yana - tuz hamvor[22] dashtni derlar. Yana tuzb'B"rost kishini derlar. Yana tuzb'B"sozni tuzmakka amr qilmog'ni, yana tuz - ikki kishi orasida muvofaqat solmog'ni (derlar). Yana tuz - bir majlis asbobini ham desa bo'lur. Va ko'k lafzin ham necha maKjni bila istiKjmol qilurlar. Biri ko'kB'B"osmonni derlar. Yana ko'k ohangdur. Yana ko'ktegrada ko'klamdu.

Yana ko'k qadog'ni ham derlar. Yana ko'k sabza va o'langni dog'i derlar. Bu navKj alfoz hamki, uch maKjni va to'rt maKjni va ortug'roqkim, iroda qilsa bo'lg'ay, ko'p borki, forsiy alfozda andoq yo'qtur.

Va maKjraf va majhul qofiyada "voviy", "yoyiy" hamki, forsiy ashKjorda voqiKj bo'lur, ikki harakatdin ortuq bo'lmas[23], "voviy"; andoqli xo'd va dud na zo'r va nur, va "yoyiy"; andoqli: pir va sher. Va turkiy alfozda bu maKjraf, majhul harakat to'rt navKj topilur ham "voviy" va ham "yoyiy"si. "Voviy"si andoqli, o'tki shayKji muhriqdur[24] va o't murur[25] maKjnisi bila va o't muqammirg'a burd jihatidin amr[26], va o'tki boridin iriq[27] harakatdur, kallani o'tg'a tutup, tukin aritur maKjnidadur. Yana bir misol: to'rgi, domdur[28] yana to'rgi, andin daqiqroq[29]durki, qush o'lur yig'ochdur, to'rgi, andin daqiqroqdur: uyning to'ridur va to'rgi, barchadin irikdur: to'rslug'ni yo eshikni to'rmak o'ydur.

Va yoyiy misol uch harakatdin ortuq topilmas bezki sort "qadud"; der va bizki "mo"; va nahnu[30] maKjnisi biladur va biyzki "darafsh"; derlar. Yana bir misol: Terki, termak maKjnisi biladur. Terki, andin daqiqdur, uldurki, sortlar ani "araq"; va "xay"; derlar. Va tir ki, boridin iriqdur, o'q maKjnisi biladur. Va bu navKj alfoz ko'p, uch harakat bila vazKj qilibdurlarki, holo shoyiKjdur. Va necha hurufqa iborat vusKjati uchun, balki qofiya suhulati uchun bir-biriga shirkat beribdurlar. Ul jumladin biri, "alif" bila "ho" orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa bo'lur[31]. Andoqli, "aro" lafzin "saro" va "daro" bila qofiya qilsa bo'lur, "sara" va "dara" bila ham qofiya qilsa bo'lur. Yana bir misol: andoqli "yado" lafzin "sado" bila qofiya qilsa bo'lur, "boda" bila ham qilsa bo'lur. Va "vov" bila "zamma"[32] orasida ham ul navKj shirkatdur. Andoqli, "erur" lafzin "hur", "dur"[33] lafzi bi-la qofiya qilsa bo'lur, "g'urur" va "zarur" lafzi bila ham joyizdur. Va "yo" bila "kasra"[34] orasida dog'i bu navKjdur. Andoqli, "og'ir" va "bog'ir" alfozin "sodir" va "qodir[35]" alfozi bila qofiya qilsa bo'lur, "taKjxir" va "tag'yir" alfozi bila ham bo'lurki, forsiy alfozda bu suhulatlar[36] yo'qtur. Va bu alfoz voziKjlar ko'p nimada juzKjijotqa taarruz qilib, g'arib mazmun va mafhumlar uchun alfoz vazKj qilibdurlar[37]. Andoqli, baKjzi masodirda[38] o'tti. Yana g'izo[39] va har taomki, esa bo'lur, eguluk derlar, va sort elning ko'pi, balki barchasi emakni ham va ichmakni ham "xo'rdani" lafzi bila ado qilurlar. Va uluq qardosh va kichik qardoshni ikkalasin "brodar" derlar va turklar ulug'ni - "og'a" va kichikni "ini" derlar, va alar ulug', kichik qiz qardoshni ham "xohar" derlar. Va bular ulug'ni - "egachi" va kichikni "singil" derlar. Va bular otaning og'a-inisin "opag'a" derlar. Va onaning og'a-inisin - "tag'oyi" (derlar). Va alar hechqaysig'a ot taKjyin qilmaydurlar va arab tili bila "em"; va xol derlar va ko'kaltoshni turkcha til bila derlar. Va atka va enagani ham bu til bila ayturlar. Bir mutaayyin nimakim "oq uydur", anga "hargoh" ot qo'yupturlar. Ammo aning ajzosining[40] ko'pini turk tili bil ayturlar. Andoqli, tungluk va uzuk va to'rslug' va bosrug' va chig' va qanot va ko'znak va uvug' va bog'ish va bo'sag'a va erkina va alo hozal-qiyos[41]. Va ov va qushki, salotin odob va rusumida har qaysi boshqa mutaayyin ishitur, ikalasin, "shikor" derlar. Va ovda umdaki[42] kiyikdur, turk aning erkakin "huna" va tishisin "qilchoqchi" der. Yana suyqunning ham erkakin "bug'u" va tishisin "maral" der. Sort ohu va gavazndin o'zga nima demas. Va bir sho'ru shaynlig'[43] ovki, to'ng'uz ovidur, aning ham erkagini "qobon", tishisin "megachin" va ushog'in "cho'rpa" derlar. Va sort barchasin "xuk" va "guroz" lafzi bila aytur. Va kelduk qushqaki, anda muqarrar va mashhur ilbosun o'rdakdur. Va sort el ilbosunni xud bilmas. Tog'i turk o'rdakning erkagini "so'na" va tishisin "bo'rchin" der. Va sort munga ham ot qo'ymaydur. Va nar va moda ikkalasin "murg'obi"der. Va o'rdakning anvoi bilur qushchilar qoshida, masalan, jo'rka va erka, suqtur va olmabosh va chokirqanot va temurqanot va aldaldag'a va olapuka va bog'chol va bu yo'sunluq derlarki, etmish navKj bo'lurkim, sort borisin murg'obi-o'q der. Va agar bir-biridan mutamayyaz qilsa[44], turkcha ot bila-o'q aytur. Yana ot anvoidaki, tubuchoq va arg'umoq va yaka va yobu va totu yo'sunliqb'B"borini turkcha-o'q ayturlar. Va otning yoshin dag'i ko'prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni "kurra" derlar. O'zga: toy va g'o'nan va

do'nan va tulan va chирg'a va lang'a deguncha fasihroqlari turkcha derlar va ko'pragi muni ham bilmaslar.

Va otning iyarin agarchi "zin" derlar, ammo ko'prak ajzosin, misli: jibilgir va hano va to'qum va jorlig' va ularchog' va g'anjug'a va jilbo'r va qushqun va qantar va tufak va to'qa yo'sunluq ko'pin turkcha ayturlar va qamchini agar "tozyona" derlar, ammo buldurgasin va chubchurg'asin turkcha ayturlar. Va jiba va javshan va ko'ha va qolg'anduruq va qorbichi va kechim va oha yo'sunluq urush asbobin ham turk tili bila ayturlar.

Va maKjhudiy albisadin[45] misli: dastor va qalpoq va navro'ziy va to'ppi va shirdog' va dakla va yalak va yog'lig' va terlik va qur yo'sunlug'b"nimalarni borisin turk tili bila ayturlar.

Yeguluklardin agarchi qo'y muchalaridin baKjzig'a ot quyupturlar, ammo orqani va oshug'lug' ilikni va yon so'ngakni va qoburg'ani va ilikni va o'rtalilik va bo'g'uzlag'uni turkcha ayturlar. Va yana baKjzi emaklardin qaymog' va qatlama va bulamog' va qurut va uloba va mantu va quymog' va urkamochni ham turkcha ayturlar. Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar. Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg'onni ham turkcha ayturlar. Va bu navKj juzKjiyotqa mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur.

Ammo kulliyarak kalimotni ado qilali: arab tilining sarfiy istilohining abvobida bir bobdurki, anga - mufoala bobi ot qo'yupturlarki, lafz bir mazkur bo'lur, ammo ikki kishi feKjlig'a mushtamildurki, bir navKj voqiKj bo'lg'ay. Andoqliki, "muoraza" va "muqobala" va "mushoara" va "mukoloma" va kulliy bobdur va munda azim favoid hosil. Va forsiygo'ylar muncha fasohat va balog'at daKjvosi bila bu foydadim mahrum. Ammo turk bulag'osi bu foydag'a taarruz qilibdurlar. Va masdarg'a bir "Shin" harfi ilhoq "ilmoq bila ul maqsudni topibduri[46]. Andoqliki, "chopishmoq" va "topishmoq" va "quchushmoq" va "o'pushmak" va bu shoyiKj lafzdur. Va bu lafz[47] vozii azizlarga joyi taslim va tahsindurki, bag'oyat xo'b qilibdurlar. Va bu fasohat bila sort, fusahosidan tamom sijilibdurlar. Yana arabiya sarf istilohda ikki mafKjulluq feKjllar borki, aning adosi dog'i muKjtabar va kulliydur. Andin dog'i sortlar oriy qolibdurlar. Va atrok anga ham xo'broq vajh bila mutobaat qilibdurlar. Arabiy andoqliki, "AKjtyatu Zaydan dirhaman", bu tarkibda uch lafz mazkur bo'lur. Alar lafzg'a bir harf orturg'on bila munga o'xshash bir zamirni orturubturlar, bag'oyat muxtasar va mufid tushubtur[48]. Andoqliki, yogurt va qildurt va yashurt va chiqart. Yana biradolari borki, baKjzi alfozning so'ngg'ida "ch, i" ki, "chi" lafzidur, orttular, yo mansabning yo hunarning yo peshaning[49] izhori uchun; forsiyida yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqliki, qo'rchi, va suvchi va xizonachi va kerak-yarog'chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yo'sunlug' ko'ptur.

Hunar va peshada andoqliki, qushchi va borschi va qo'ruqchi va tamg'achi va jibachi va yo'rg'achi va halvochi va kemachi va qo'ychi. Andoqliki, qush hunarida dog'i bu istiloh bordur, andoqliki, qozchi va quvchi va turnachi va kiyikchi va tovushqonchiki, sort lafzida yo'qtur. Va alar mazkur bo'lg'onlarning ko'pin turkcha ayturlar.

Yana bir navKj iborat vaadolari borkim, birovdin bir ishni gumon eltmak bila ul ishni ul kishiga nisbat guna[50] berurlar, yo'qliki, tahqiq yuzidin, balki mazanna[51] va gumon haysiyatidin[52], ammo munda diqqat[53] ko'ptur Andoqliki: borg'udek va yorg'udek va kelgudek va bilgudek va aytqudek va qaytqudek va urg'udek va so'rg'udek va bu forsiyida bo'lmas.

Va baKjzi alfozning oxirida bir "chim" harfi vasl qilurlar[54] va aning bila ul fiKjlda suKjrat yo'sunluq iroda qilurlar. Andoqliki, tegach va aytgach va borg'och va yorg'och va topkoch va sotqoch, yana bir "re" harfiki, baKjzi lafzning oxirig'a ilhoq qilurlar, andin mubolag'a va saKjy iroda qilurlar, andoqliki, bilako'r va qilako'r va ketako'r va etako'r. Va yana bir rang yo bir sifatning shumuli xolig'a mubolag'a uchun aning avvala harfig'a bir "p" yo "mim" izofa qilib, ul shayKjg'a zoid qilurlar; "p" misoli: op-oq qap-qaro, qip-qizil, sap-sarig', yup yumaloq, yap-yassi, oepochug', chup-chuqur, bu navKj xili ham topilur, "mim" misoli: ko'm-ko'k, yam-yashil, bo'm-bo'z[55]. Yana bir "vov" va "lom" baKjzi lafzg'a ilhoq qilib bir maxsus sifatqa taKjyin qilurki, salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihat uchun muKjtabardur[56]. Andoqliki, hirovul, qarovul va chingdovul va yankovul va so'zivul va patovul va kitpovul va yasovul va bakovul va shig'ovul va daqavul kim, alar mundin ulviy[57]durlar.

Yana baKjzi lafzg'a bir "lom" ilqoq qilurlarkim, ul shayning ul sifatda rusuxig'a[58] dalolat qilur. Andoqliki, qahol va yasol va qabol va tunqol va birqol va to'sqol va sevarg'ol.

Bu alfoz va iboratda bu navKj daqoyiq ko'pdurkim, bu kunga degincha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilimag'on jihatdin bu yashurun qolibdur. Va hunarsiz turkning sitam zarif[59] yigitlari osonliqqa bo'la forsiy alfoz bila nazm ayturg'a mashg'ul bo'lubturlar. Va filhaqiqat agar kishi yaxshi mulohaza va taammul[60] qilsa, chun bu lafzda muncha vusKjat[61] va maydonida muncha fushat[62] topilur. Kerakkim[63], munda har navKj suxanguzorlig' va fasihguftorlig' va nazmsozlig' va fasona pardozlig' osonroq bo'Kjlg'ay va voqiKj osonroqdur.

Andin so'ngrakim, turk tilining jomiiyati[64] muncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo'lg'on tabKj ahli salohiyat va tabKjlarin o'z tillari turg'och, o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytalar erdi, va yana bir til bila ozroq aytalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytalar erdi. Bu ihmimolg'a xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtabaKjlar majmui sort tili bila nazm aytqaylar va birkul turk tili bila aytmag'ylar, balki ko'pi aytal olmag'aylar va aytalar ham sort turk tili bila nazm aytqondek fasih turklar qoshida o'quy va o'tkara olmag'aylar va o'qusalar har

lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz eKjtiroz vorid bo'lq'ay.  
 Bas bu haysiyatlardin andoq malum bo'lurkim, bu tilda g'arib alfoz va ado ko'pdur. Muni  
 xush oyanda tartib va raboyanda tarkib bila bog'lamog'ining dushvorlig'i bor. Mubtadiy tabKji ul  
 nazmni dushvorlig' bila bog'lamoqdin ko'ft topib, mutanaffir bo'lur va osonroq sari mayl  
 qilur. Chun necha qatla bu navKj voqiKj bo'ldi, tabKji xo'y qildi. Chun tabiat muKjtod bo'ldi, o'z  
 muKjtodin qo'yub g'ayri muKjtdog'akim, mushkilroq ham bo'lq'ay, mayl qilmog'i mutaazzirdur.  
 Yana ulkim, fahm jinsi ojizlarni ham moyil, balki mushtag'il ushbu navKjg'a ko'rар va iyomon  
 va rasm ahli tariqidin chiqmog'ni munssib ko'rmas, va bu navKj bila qolur. Va mubtagid'a yana  
 odatdurkim, tabKjidin ul nima bosh ursa, chun o'z zodai tabKji o'ziga mahbub ekanga majbuldur,  
 tilarki, ani bu fan ahlig'a arz qilib jilva bergay. Chun bu fan ahli forsiygo'ydurlar va turk  
 alfozidin bahramand emaslar, tabKji ul jonibdin iKjroz qilib, bu fang'a mashg'ul el sari mayl  
 ko'rgezur. Emdiki mayl ko'rguzdi, munosabatlar topib ham bu xayldin bo'lur. Andoqki, bu  
 zamonda bo'lubtur. Bori har taqdир bilaki bor, bovujud turk alfozning forsiyg'a mucha  
 maziyati va nafs amrda mucha diqqati va vus'ati nazm tariqida shoyiKj emas erdi va kitmon  
 nihon xonasig'a tushub erdi, balki matruk bo'lurg'a yovushub erdi  
 [65].

Bu xoksorg'a sabo avoilidakim, og'iz huqqasidin biror gavhar zohir bo'laboshlar, ul  
 gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur erdikim, zamir darKjyosidin nazm silkiga tortilg'on  
 gavharlar tabKj g'avvosi saKjyi bila og'iz sohilig'a kelaboshlamoq ko'rguzup erdi. Chun mazkur  
 bo'lq'on qoida bidakim, ado toptibB"mayl forsiy sari bo'ldi. Ammo chun shuur sinnig'a qadam  
 vo'yuldi, chun hak subhonahu va taolo tabKjg'a g'arobat sari maylni zotiy va diqqat va  
 dushvorpisandiliqqa shuruKjni jibilly qilib erdi, turk alfozиг'a dog'i mulohazani lozim  
 qo'ruldi - olame nazarg'a keldi, o'n sakkiz ming olamdin ortuq; anda zeb va ziynat sipehri  
 tabKjg'a malum bo'ldi, to'qquz falakdin ortuq; anda fazl va rifKjat maxzani uchradi, durlari  
 kavokib gavharlaridin raxshandaroq va gulshani yo'lutqi, gullari sipehr axtaridin  
 duraxshandaroq; harimi atrofi el ayog'i etmakdin masun va ajnosi g'aroyibi g'ayr ilgi  
 tegmakdin maKjmun. Ammo maxzanining yiloni xunxor va gulshanining tikani behad va shudgor.  
 Xayolg'a keldikim, hamonoki, bu yilonlar neshi nashtaridin tabKj ahli xiradmandlari bu  
 maxzandin bahra topmay utupturlar. Va ko'ngulga andaq evruldikim, go'yo bu tikanlar sarzanishi  
 zararidin nazm xayli guldstabandlari bu gulshandin bazm tuzgucha gul iliklay olmay yo'l  
 tutupturlar.

Chun bu tariqda himmat oliy erdi va tabKj bebok va louboliy, o'targa qo'yamadi va  
 tamoshosidin to'yamadi. Ul olam fazosida gabKj sipohi turktozlig'lar tuzdi, va ul sipehr  
 havosida xayol qushi baland parvozlig'lar ko'rguzdi va ul ganj javohiridin zamir sayrafisi  
 nihoyatsiz qiymatlig' laKjl va durri samin oldi. Va ul gulshan rayohinidin ko'ngul gul chini had  
 va g'oyatsiz nakhatlig' gul va yosman qo'ynig'a soldi.  
 Chun bu muvohib bila g'inolar va bu g'anoyim bila istig'nolar tuyassar bo'ldi, muning  
 natoyiji gullari ro'zgor ahlig'a behad va mikdor ochilaboshladi va boshlarig'a beixtiyor sochi-la  
 kirishti.

Ul jumladin biri - "G'aroyibus-sig'ar" devonidurkim, kichik yoshda tahririm guzorish va  
 tahririmdin nngorish topibdurkim, maoniy g'urabosidin g'arib alfoz libosig'a kiyurupmen va  
 xalq ko'nglin ul g'aribston ahli o'ti bila ko'ydurup men

[66].  
 Yana "Navodirush-shabob" devonidurki, yigitlik avoyilida bayonim kilkidin namoyish  
 devonig'a va oroyish bo'st;onig'a kiribdurkim, ul navodir tamoshosidin yigitlik mulkida g'avg'o  
 solibmen, va mulk yigitlari ko'nglidin orom va qarorni olibmen.

Yana "Badoyiul-vasat" devonidurkim, umr avsatida hayolim xomasi aning zebig'a  
 naqshbandlig' va ziynatig'a sihrpay-vandlig' qilibdurkim, ul badiKjlar vositasidin shaydo  
 ko'ngullar eshigin ishq toshi bila qoqibmen va ul uyga fitna va ofat o'tin yoqibmen.

Yana "Favvoidul-kibar" devonidurkim, hayot avoxirida taxayyulum xomasi ani rashki  
 nigorxonai chin va g'ayrati xul-di barin qilibdurkim, anda ulug'larg'a foidalar zulolin  
 etkurupmen va havaslari shuKjlasig'a nasoyih zulolidin suv urupmen.

Bu to'rt devon ovozasin chun rubKji maskung'a etkurupmen, "Xamsa" panjasig'a panja urubmen.  
 Avvalkim, "Hayratul-abror" bog'ida tabKjim gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi "Maxzanul-  
 asror" idin boshimg'a durlar sochibdur.

Yana chun "Farhod va Shirin" shabistonig'a xayolim yuz tutubtur. Mir Xusrav dami "Shirin  
 va Xusrav" o'tidin charog'imni yorutubtur.

Yana chun "Layli va Majnun" vodisida ishqim po'ya urub, Xoja Himmartin  
 "Gavharnoma"sidin nisorimg'a gavharlar etkuruptur.

Yana chun "SabKjai Sayyyora" rasadin zamirim bog'labtur, Ashraf "Haft paykar"ining etti  
 hurvashin peshkashimg'a yarog'labtur.

Yana chun "Saddi Skandariy" asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Maxdum  
 "Xiradnama"sidin ko'si isloh va immod cholibdur.

Bu "Xamsa" shug'lidin chun farog'at topibmen, taxayyulum geti navardin salotin taKjixi  
 dashtig'a chopibmen, chun noma savodi zulmatidin "Zubdatut-tavorix" adosin tuzupmen, salotin  
 o'lgan otin bu hayvon suyi bila tirguzupmen.

Chun "Nasoyimul-muhabbat" nafahoti bayonidin kilkim fayzrason bo'lubtur, avliyo-ullo  
 muqaddas ruhi fayzidin olam to'lubtur

[67].

Chun "Lisonut-tayr" ilhoni bila tarannum tuzupmen, hush tili ishorati bila haqiqat asrorin majoz suratida ko'rguzupmen.

Chun "Nasrul-luoliy" xazoyini tarjimasig'a, ettim, "Nazmul-javohir" bila maKjni abkorin hullalarin murassaKj ettim.

Chun "Mizonul-avzon" bahrlarida g'avvos bo'lдум, ul miKjyor bila Nasiri Tusiyl uzrin qo'lдум.

Yana dog'i rasoyilg'a qalam surupmen va mukotibg'a raqam urupmenki, forsiy sihrsozlar va pahlaviy afsona pardozlar ham anda avroq orosta va ajzo pirosta qilibdurlarkim, dom hakam adolat yuzidin ko'z solsa va burung'i forsiy va so'ngg'i turkiy latoyif va daqoyiqidin bahra olsa, hukm so'rар zamonida va har qaysining martabasini taKjyin qilur ovonida umidim uldur va xayolimg'a andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi aKjlo darajadin o'zga erni beganmagay.

Bu so'zlardin xasm mundoq bilmasun va muddaiy bu navKj gumon qilmasunki, mening tabKjim turk alfozig'a muloyim tushgan uchun taKjrifida mubolag'a izhor qilurmen, va forsiy iboratqa munosabatim ozroq uchun inkor va nafyig'a isror ko'rguzurmenkim, forsiy alfoz istiyfoshin va ul iborat istiqqsosin kishi mendin ko'proq qilmaydur erkin va saloh va fasodin mendin yaxshiroq bilmaydur erkinkim, umrum gulshanining toza bahorining tarovati chog'i va hayot ravzasining navras sabzazorining nazohati vaqtikim, o'n besh yoshtin qirq yoshqachadurki, inson xaylining tabKji bulbuli har gul jamolig'a shefta va ruhi parvonasi har shamKj husnig'a fireta bo'lur, vaqt bu avqotdur. Va bu avqotda ko'p g'arib voqiKj hodisdurki, ul voqia birov husn va nozin yo o'z ishq va niyozin sharh etarga bois bo'lur. Va bu hol g'azal tariqida munxasirkim, yo ayturg'a mutaammil bo'lulg'ay yo o'qurig'a mushtag'il. O'qurig'a davovindin bu faqir mutolaasisig'a ko'p mashg'ul bo'limg'on devon oz erkin. Bataxsis ishq va dard ahlining rahbar va peshravi Amir Xusrav Dshlaviy devonikim, oshiqliqda dard va niyozi va so'z va gudoz tariqin ul muntashir qildi va oning ishq mashKjalidin bu partav olam tiyra xokdanig'a yoyildi.

Yana haqiqat ahlining sarxayl va sarafrozi Xoja Hofiz Sheroziy nukot va asrorinki, anfosi ruhul-qudsdin nishon aytur va ruhullo anfositdin asar etkurur

[68]

Yana bu faqirning piri va ustozi za tariqat ahlining sohibi irshodi, jamiKj ahlulloning muqtado va shayxul-islomi... Mavlono Abdurrahmon Jomiyning ruhparvar latoyifi va ruh gustar zaroyifikim, andin har g'azal kalvahyil-munzal va har risola kal-ahodisin-nabiyi mursal oliy shon va rafi makondurkim, alardin har lafz qiymatda durri samindin obdorroq va hirqatda laKjli otashindin barq kirdorroq. Va ikkalasi mazkur bo'lg'on aziz kalomi muKjjiz nizomidin anda choshni va nasib va o'z ishq va kamoloti va nihoyati holoti munga izofaki, hozo shayKjun ajib! Barchasig'a ko'p qatla utupmen, balki ko'pin yod tutupmen, va qasoyid va g'azaliyotlarining g'arib va latofatin bilibmen, balki g'aribroq va latifroqlarig'a tatabbuKjdag'i qilibmen. Qasoyiddin Amir Xusravning "DarKjyoyi abror"ikim, mashhur mundoqdurki, der emish bo'lg'ayki, "yuz ming baytdin ortug' devonlarim g'azaliyoti va qasoyid va masnaviyalarim abyoti agar olam sahifasidin yuyulsa va davron safihasidin mahv bo'lsa, va bu qasida qolsaki, anda maKjni istiyfosi vofiydur, bu fan ahlig'a me-ning fazoyilim dalilig'a kofiydur". Matlai mashhurdurkim,

Nazm:

Ko'si shah xoliyu bongi g'ulg'ullaash dardi sarast

Har ki qoniKj shud baxushku tar, shahi bahru barast.

Bu sheKjrg'a Hazrati Maxdumiy Nuran javob aytubdurlar, va otin "Lujjatul-asror" bitibdurlar. Va matlai budurkim,

Bayt:

Kunguri ayvoni shah kaz koxi kayvon bartarast,

Raxnho don kash badevori hisori din darast

ki, agar ul darKjyoyi abrordur, bu abri bahordurki, martabada andin balandroq va bahrada andin foydamandroqdurki, aning ustiga soya solurg'a yoyila olur va boshig'a dur afshonlig' dog'i qilaolur. Faqir ikkalasi buzurgvori rafiKj miqdorg'a niyozmandlig' va gadolig' yuzidin tatabbuKj qilibmen va otin "Tuhfatul-afkor" deb men. Va matlai budurkim,

Bayt:

Otashin laKjle ki, toji xusravonro zevarast

Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sarast

[69].

Va ko'p maKjni angez iborot va taKjmiya amez ishorot izofa qilibmenki, bu fan ahlining mohirlari musallam tutupturlar. Va har "ishiga bu bobda taraddud bo'lsa Hazrati Mahdumiy Nuranning "Bahoriston" otlig' kitobinkim, ani "Bahoristoni hayot va nigoristoni najot" desa bo'lur, bu matlaKjni bitibdurlar va ietishhod yuzidin taKjrifin aytibdurlarki, bu manshuri davlat sipehr taqig'a osilsa eri bor va bu tug'royi saodatni Mushtariy bo'yning'a oviza qilsa mujibi mubohot va iftihordur. Ul kitobni oldik va bu mahallini topib nazar soldik va bildikki, ulcha men taKjrifida tahrir qilibmen, taqsir qilibmen.

Yana Mir Xusravning "MirKjotus-safo" otlig' qasidasig'akim, xalloql-maoniy Xoqoniy Shervoniy tatabbui qilibdur va matlai budurkim,

Bayt:

Dilam tiflastu piri ishq ustozi zabon lonash,  
Savodulvajh sabaqu, maskanat kunji dabistonash.  
Va Hazrati Maxdumiy Nuran aning javobida "Jilour-ruh" otlig' qasidani debdurlar va  
matlai budurkim,

Bayt:

Muallim kist, ishq ustozi zabon lonash,  
Sabaq nodoniyu dono dilam tifli sabaqxonash.  
Va faqir ham "Nasimul-xuld" qasidasin ikalasi buzurgvorg'a tatabbuKj qilibmen va matlai  
budurkim,

Bayt:

Muallim ishq ustozi zabon lonash,

Payi taKjdibi tifl inak falak shud charxi gordonash.

Bu qasidag'a dog'i ko'p maoniy gavhari darj va umr naqdi xarj bo'lubdur  
[70].

Yana "Ruhul-quds" qasidasin baland ovoza qilibmenki qudsiyalar ruhin andin toza  
qilibmen va matlai bu dururkim,

Bayt:

Zihi baxomai qudrat musavvar ashKjyo,

Hazor nakshi ajab har zamon azo' paydo.

Yana "Aynul-hayot" qasidasi zulolin etkurupmenki, g'aflat ahlining o'luk badanlarig'a jon  
kiyurupmen va matlai budurkim,

Nazm:

Hojiboni shab chu shodirvoni savdo afganand,

Jilva dar xayli butoni moh siymo afganand.

Yana "Minhojun-najot" qasidasida hidoyat tariqin tuzupmen va zalolat ahlig'a najot  
shahrohin ko'rkuqupmen va matlai budurkim,

Bayt:

Zihi az shamKji ro'yat chashmi mardum gashta nuroniy,

Jahonro mardumi chashm omadi az ayni insoniy.

Yana "Quvvatul-qulub" qasidasinki, kilkim sabt etibdur, haqiqat yo'lida zaKjflig'  
ko'ngullarga ul qutdin quvvat etibdur va matlai budurkim,

Bayt:

Jahonki, marhalai tangi shohrohi fanost,

Daro' masoz iqomatki, rohi shohu gadost.

Bu olti qasida hamd va naKjt va sano va mavKjizatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila  
maKjrifat.

Yana zohir shuarosi tariqida ham to'rt qasidaki, "Fusuli arbaa" g'a mavsumdur va andin to'rt  
fasl: harorat va burudat va rutubat va yabusati kayfiyati maKjlum, xomam raqam qilibdurki, to'rt  
fasl xosiyati asaridek rubKji maskung'a yoyilibdur  
[71].

Yana suxanpardoz ustozi oliy shon Xoja Kalimiddin Salmonki, qasida maydonining chobuk  
suvoridur va o'z zamonining benazir suxanguzori, mashhurdurki, chun masnuKj qasidasasi tartibig'a  
qalam surubtur, o'n sekkizda itmom etkurubdur. Veqjan ishi qilibdurki, nazm ahli aning  
taammuqida hayron va taammulida sargardonduurlar. TarsiKj sanKjatikim, matlaKjedin o'zga baytda  
bo'la olmas, ul qasidaning agarchi mustaxraj matlai rostdur, ammo asli matlaKjeda avvalg'i  
misraKjning bir lafzida taxalluf qilibdur va matlai budurkim,

Bayt:

Safoyi safvati ro'yat birext obi bahor

Havoyi jannati ko'yat ba bext mushki tator.

Bu matlaKjg'a tatabbuKj qilg'on ko'p suxanvarlar va nazm gustarlar chun muqobalada debdurlar,  
lat ebdurlar. Bu faqirning matlai budurkim,

Bayt:

Chunon vazid ba bo'ston nasimi fasli bahor,

Kazon rasid ba yoron shamimi vasli nigor.

Basorat ahli mulohaza qilsalar bilurlarki, bu matlaKj-tarsiKjg'a voqiKj bulur, aybdin muarro  
va murassaKjg'a kelur, eKjtirozdin mubarodur. Bu navKj sheKjrning taKjkid va mubolag'asi uchun yana bir  
ruboiy ham debmenki, to Xalil binni Ahmad ruboiy qoidasin vazKj qilibdur, tarsiKj sanKjatida  
ruboiy aytulg'on eshitilmaydur, balki yo'qtur va ul budurkim,

Bayt:

E ro'y tu kavkabi jahon oroyi,

Ve bo'y tu ashabbi ravon osoyi.

Be mo'y tu, yorab chunon farsoyi

Giso'y tu chun shabi fig'on afzoyi.

Yana forsiy g'azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jamiKj suxan adolar va nazm pirolar  
nazarda mustahsan vaKj matbuKjdur, tartib beribmenkim, olti mingdin abyoti adadi ko'prakdurki,  
ko'prak ul hazrat sheKjrig'a tatabbuKj voqiKj bo'lubtur. Va baKjzi Hazrati Shayx Muslihiddin SaKjdiy  
(quddisa sirruhu)g'akim, g'azal tavri muxtariidur. Va baKjzi Mir Xusravg'akim, ishq  
otashkadasining shuKjla angezidur va dard g'aribxonasingh ashkrezi. Va baKjzi Hazrati Maxdum

Nurang'akim, kamol avjining mehri lomiidur va mazkur bo'lgon azizlar holotining jomniki, bu devon xaloyiq orasida shoyiKjdur va ro'zgor ahlining tabKjlari ul sari rojiKj va anda kup turluk dilkash adolar va dilpazir maKjnolar voqiKjdirki, tafsili bu faqirdin munosib emas. Va anda har navKj nazm asnofidin, misli: muqattaot va ruboiyot va masnaviy va taKjrix va lug'az va ul jumladin besh yuzga yaqin muammokim, ko'pi Hazrati Maxdumi Nuran muborak nazarig'a etibdur va ul hazratning isloh va tahsini sharafin kasb etibdurkim, xomamdin ro'zgor safhasig'a yozilibdur va qalamim layl va nahor avreqida naqsh qilibdur [72].

Bulardin dog'i boshqa, yigitligim zamoni va shabob ayyomi ovonida ko'prak sheKjrda sihrsoz va nazmda fusun pardoz shuaroning shirin ashKjori va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmen va alar zavq va xushhollig'idin o'zumni ovutupmen va saloh va fasodlarig'a fikr aytibmen, va maxfiy daqoyiqig'a taamul va tafakkurlar bila etibmen, va forsiy alfez ayb va hunari mulohazasi idrokida tabim o'zin solmaydur, balki ul vodiq qatKjida kilkim ravandas tez gomlig' bila qadam urmag'on er qolmaydur. Va o'ttuz yildin ortuq va qirq yilg'a yaqindurkim, Xuroson mulkikim, fazlu kamol ahlig'a olam mamelikining misri muazzami va savodi aKjzamidur, bu mulkning jamiKj nazm ahli shuaroyi shirin kalomi va fusahoyi vojibul-ihtiromi har ne har maKjni bilakim, avroq yuziga oroyish va har alfoz bilakim, ajzo izorig'a namoyish beribdurlar, bu faqir suhbatig'a etkurbudurlar va bu zaif ollinda o'tkaribdurlar va hak va isloh iltimosin qilibdurlar, va xotirg'a qilg'on nuktaki, aytilibdur, insof yuzidin musallam tutupturlar va agar baKjzi ibo qilibdurlar daloyil bila alarg'a xotir nishon qilibdur, andin so'ngra qabul qilib, o'zlarin shokir va mammun bilibdurlar. Va baso maoniy ahli xurdadonlar va daqoyiq xayli daqiq bayonlarki, Anvari va Salmon sheKjrida har biri birining jonibin tutub bahslar qilib, so'zlar bir-biridan o'tmagandin so'ngra bu faqir ollig'a muhokama uchun kelturruptururlar va har ne hukm topib dururlar musallam tutub, unoqashalari bartaraf bo'lubtur. Va g'azalda Mir Shohiy va Mavlono Kotibiy va alar g'ayri tarafidin dog'i bu yo'sunluq va masnaviyda hazrat Shayx Nizomiy va Mir Xusrav Dehlaviy jonibidin dog'i bu dasturlug' ko'p noqiKj bo'lupdur [73].

Barchadin kulliyrok sanad bukim, hazrati irshod panohi... Nuranki,... forsiy so'zda jamiKj alar so'zidin yuqoriroq so'z yo'qtur, ko'prak kutub va rasoil va g'azaliyot va kasoyiddaki, maoniy gavharlarin nazm silkiga kiydurur erdilar va zamir nihonxonasidin anjuman tamoshogohig'a jilva berur erdilar, aning musvaddasin burunroq bu faqirg'a iltifot va eKjtikod yuzidin berur erdilarkim: "Bu avroqni ol va boshtin oyog'iga nazar sol, xotiringg'a har ne aytqudek so'z kelsa ayt", deb va har neishorat bo'lgonikim, mazkur bo'lidi, zohir qilsam maqbul tushar erdi. Bu daKjvog'a dalil bukim, o'ndin ortuq kutub va rasoilda ul hazrat bu faqirning otin mazkur qilibdurlar. Va ko'pi tabKj va idrok va munga munosib nimalarga nisbat berib, mastur qilibdurlar. Bu qabul nazari asaridin bir qarndin ortuq sultonus-salotin sipehr oyin suhbatlarida va firdavs tazKjyin xidmatlaridakim, ahli kalomdin va maqoldin fazl va kamol zumrasining majmaidur va ilm va fazlning manbaidur, bu faqirnnng so'ziga martaba rafiKj va maqola vasiKj erdi, va o'ziga so'z jihatidin azim eKjtibor va oo'ziga o'z jihatidin biyik poya va miqdor.

Va sultonus-salotinki, mazhari lutfi ilohiy va mazhari anvori haqoyiqi nomutanohiydur va farxunda zamiri: ulum gavharining darKjyosi va xujasta xotiri xoksor bandalar zotining kimiyosidur, bu toyifaning ko'prak istiloh va qavoididin oliy majlisda so'z o'tsa muxotab bu faqir, fasohat va balog'at ahli natoyiji tabKjidin har ne mazkur bo'lsa mushorun ilayx bu haqirni qilur erdilar. Va ul miqdor bu tufrog'ning rutbasin falakka etkurbur va oncha bu zarranining poyosin quyoshdin oshurup erdilarkim, o'zlarining xurshed fayz tabKjlaridin zuhur qilg'on risolaki, o'z gavharrez qalamlaridin nigorish topibdur va o'z kamohii holatlari kayfiyatida guzorish surati tutupdur, bu boyri bandalarini nazm tariqining barcha navKjida taKjriflar bitib, "sohibqiron"liq laqabi bila sarafroz qilibdurlar va bemisl va anbozlig' vasfi bila mumtoz etibdurlar va muqarrardurki, humoyun tabKjlar zamon mushkilotining miKjyoridur, farxunda zihnlari olam daqoyiqining halloli va sohib asrori.

Bandai-xoksor agarchi tufrog'din o'ksuk erdim, ammo ul quyosh tarbiyati bila rango-rang gullar ochtim va bu afgandai beiKjtibor agarchi zarradin kamroq erdim, ul sahab taqviyati bila gunogun durlar sochtim va dilso'z abKjyotim munojot ahlig'a oshub va g'avg'o soldi va bazm afro'z g'azaliyotim xarobotiylarg'a oh va vovaylo soldi.

Hosili kalom andin so'ngrakim, mucha qaviy daloil va azim shavohid bila bu faqirning vuqifi, balki mahorati bu fanning forsiy va turkiy nazmida sobit va ravshan bo'lidi, agar birni yana birga tarjih qilsam kerakki, bu toyifadin hech kishiga musallam tutup sidq demakdin o'zga maqol va majol bo'limg'ay. Bataxiski, mucha burhoni qotiKj bila ham qatKj topqay va istishhodga bu musvaddaning ham lafzi yo'qli, har harfi farKjyod urg'aylar va g'avg'o ko'targaylor [74]

Yana bir kulliya bu kim, to mulk arab xulafosi va salotinida erdi, falak ul vaqtida nazm dabirig'a arab tili bila jilva berdi, andoqli, Hasson Sobitdek va Laqitdek malikul-kalom suxan guzorlar va maKjniy ofarin fasohat shiorlar paydo bo'ldilar va o'z tillari bila nazm adosining dodin berdilar.

Bu munosabat bila arab salotini dog'i Ibrohim Mahdiydek va MaKjmun xalifadek va bulardin o'zga ham salotinzodalar g'arro nazmlardin qasoyid ayttilar va favoid zohir qildilar. Chun mulkdin baKjzi aqolim va kishvarda sort salotini mustaqil bo'ldilar, ul munosabat bila forsiyo'y shuar oshur qildilar. Qasidada Xoqoniy va Anvariyy va Kamol Ismoil va Zahir va Salmondek va masnaviyda ustozi fan Firdavskiy va nodiri zamon Shayx Nizomiy va joduyi hind Mir Xusravdek va g'azalda muxtarii vaqt Shayx Muslihiddin SaKjdiy va yagonai asr Xoja Hofiz Sherziydekki, bularning taKjrifi yuqoriroq chun shammai surulupdur va vasflarig'a qalam urulupdur. So'zni uzotmoq hojat emas va kalom tatvilin maKjni ahli mustahsan demas. Va bu munosabat bila sort salotinidin ham Sulton Tug'ruldek va Shoh ShijoKjdek oliv qadr podshohlar va rafiKj martaba anjum sipohlar rangin abKjyot va shirin g'azaliyot ayttilar va zamonlarida mashhur bo'ldi va ro'zgorlari avroqida adastur. To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarig'a intiqol topdi, Halokuxon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamonining oxirig'acha turk tili bila shuar paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xush tabKj salotini zuhurg'a keldi: shuar Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoyideklar. Va forsiy mazkur bo'lg'on shuar muqobalasida kishi paydo bo'lmadi, bir Mavlono Lutfiydin o'egakim, birnecha matlaKjlari borkim, tabKj ahli qoshida o'qusa bo'lur. Ul jumladin biri budurkim,

Bayt:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,  
Ko'zgudek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.

Va salotindin ham o'lgucha tabKj asari hech qaysidin zohir bo'lmadi va varaq yuziga naqsh qilg'ucha nima qolmadi, Sulton Bobirdin o'zgakim, bu matlaKj alar tabKji asaridurkim [75].

Bayt:

Necha yuzung ko'rub hayron bo'layin,  
Ilohi men senga qurban bo'layin.  
To bu vaqtqachakim,... Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodirxon...

Ruboiy:

Kim to falak ofoq uza davr qilur,  
Anjum guli har tun bu chamandin ochilur,  
Ne shoh aning zoti kibi yod bilur,  
Ne tabKj aning tabKjidek istab tapilur.

Digar:

To kim falak evrulur davom o'lsun anga  
Iqbol bisotida maqom o'lsun anga  
Ham nutq bila jonbaxsh kalom o'lsun anga  
Ham nazm kalomi mustadom o'lsun anga.  
jahonbonliq taxtida maqom tutti va kishvar sitanliq mas-nadida orom topti,- mulk silkiga amniyat gavharlarin chekti, va jahon mazKjraida jamKjiyat donalarin ekti, chun salim qalbi gavhari koni masniy erdi va mustaqim zihni mavridi fayzi subhoniy, kalom ahlig'a tarfiya va ibtihojlar va kalom xaylig'a ravnaq va rivojlar dast berdi. Va har ilmda mufid taKjilflar va har fanda muntij tasniflar qildilar va g'arib rasoyili maKjnaviy zuhur qpldp va ajib davovin va g'azal va qasoyid va masnaviy yoyildi. Va o'z sharif tabKj va latif zihnlaridin dog'i, agarchi ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir erdi, ammo asli tabKj iqtizosi va shoyiKj takallum munosabati adosi bila turkiy devon tadvinig'a mayl qildilar va dilpazir abKjyot va benazir g'azaliyot tartib berdilar... Hosilki, turkcha til bila bu navKj devonki, mazkur bo'ldi va taKjrifi bu sifat va oyin bilaki, mastur bo'ldikpm, bu yo'sunluq g'aroyib yo'qli, salotini mukarrami doro hashamdin, balki shuaroyi qudsiy nafasi masih damdin voqiKj bo'lmaydur va orag'a kirmaydur, voqiKj bo'ldi va orata tushti va aning zuloli hayotining fayzi quyosh chashmasidin o'tgali yovushti va bu toifaning bebahralari bu ruh naqdidin bahrayob va lab tashnalari bu obi hayotdin serob bo'ldilar. Bovujud bu sultonus-salotinning kimiyo asar xotiri za xurshed osor zamiri dog'i munga moyilki, turk nozimlari o'z alfozlari bila sheKjrg'a mashg'ulluq qilg'aylar va ko'ngul g'unchasi dog'idinki, pechlar chirmanbdur bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg'aylar. Va iltifot va ihmommoy yuzidin baKjzi maKjnilar topib nazm qilurg'a hukmlar ham jori bo'ldi va so'z uslubig'a taKjyinlar va adosig'a taKjlimlar ham izhori bo'ldi

[76].

 Qari - 10 yil, 30 ynl, bir asr maKjnalarida keladi  
 Qarobat - yaqinlik, qarindoshlik  
 Qasaba - shaharcha, katta qishloq  
 QatKj topish - kesilish, uzulish  
 Qiblatul-kuttab - kotiblarning ilg'ori maKjnosida  
 Qiroat ilm  qurKjonni to'g'ri va qoidaga muvofiq o'qish  
 Qoziyul-quzot - bosh qozi, qozi kalon  
 Qoyil - so'zlovchi.  
 Qubbatul-islom - islom gumbazi  
 Qosir - kamchilikli  
 Qudsiy - pok, pokiza,  
 Qulla - cho'qqi; qullai gardunxaroshb  osmonga etuchi  
 Quro - qishloqlar; birligi qarKjya.  
 Qurro - korilar  
 Qurchuk - kigizdan ishlangan kuloh (bo'rк) ustidan darveshlar chulg'ab yuradigan jun salla.  
 Qut - oziq  
 Qo'lmoq - istamoq, so'ramoq, uzrin qo'ldim - uzrni so'radim.

## G'

G'avvos suv ostiga sho'mg'uchi (vodolaz)  
 G'azaliyot - g'azallar  
 G'avr - tag, ost  
 G'azalfurushlikb  ish sotuchilik  
 G'aybat - g'oyib bo'lish  
 G'ayri mukarrar - takrorlanmaydigan  
 G'ayri muKjtod - odatdan tashqari, odatlanilmagan  
 G'anim - qarshi, dushman  
 G'arib maqosid - qiziq maqsadlar.  
 G'anoim - g'animatlar, o'ljalar  
 G'arobat - qiziqliq, kamKjyoblik  
 G'arobatjo'y - ajib, qiziq narsalar qidiruchi  
 G'aroyib - ajoyib, qiziq  
 G'aromat - pushaymonlik  
 G'ino - boylik  
 G'urabo - g'ariblar, faqirlar (g'arib so'zining ko'pligi)

## H

Habib - do'st, seviklp  
 Havoshi - hoshiyalar, sharhga bog'langan sharhlar  
 Had - chek, chegara  
 Hadiqa - bog'  
 Hajr - ayriliq  
 Hazzol - qiziqlichi  
 Hayvon suvi - tiriklik suvi  
 Haysiyat - jihat  
 Hakam - hukm qiluchi, o'rtadagi daKjvoni bitiruchi  
 Hak - taroshlash, tekshirish  
 Hakimvash - hakimnamo  
 Hallol - hal qiluchi  
 Hallul-mushkil - mushkillarni (qiyinchiliklarni) haKjl qiluchi  
 Halovat - shirinlik  
 Hamvor - tekis  
 Hamida - yaxshi, go'zal  
 Hamnoy - yo'ldosh, sherik maKjnosida  
 Harim - atrofi o'ralgan, hovli  
 Harif - hamkasb, o'rtoq, do'st  
 Harorat - issiqlik  
 Hasab - shaxsiy qadr-qiymat, fazilat  
 Hasbi hol - bayoni hol  
 Hasr - o'rab olish, maxsuslik, tegishli bo'lish

Haqir - qadrsiz, kichik, haqirul-jussab "kichik gavdali  
 Haqoyiq - hakiqatlar  
 Haqshunoslik haq tanish  
 Hilm - yumshoqlik  
 Hirmon mahrumlik, umidsizlik  
 Hirfa - kasb, hunar  
 Hirqatb " kuyish, kuydirish  
 Hodiyi tavfiq - insofga yo'l boshlovchi  
 Hoziq - mohnr, epchil  
 Hozo shaiKjun ajib - arabcha undov gap, "bu qizik iarsa", demak  
 Holo - hozirda  
 Hofiza - eslash, unutmaslik, yodda saqlash quvvasi  
 Huvaydo - oshkor, ochiq, namoyon  
 Hudqa - quyuq chang, ko'zga qora ko'reninish  
 Huzabr - kuchli, shijoatli  
 Hukkomb " hokimlar  
 Hullaboflig' - ipakli mata to'quchilnk  
 HulKjya, hilya, - yaxshi kiyim, bezak  
 Humoyun - qutlug', sharaflı  
 Humrat - qizillik  
 Huqqa - marvarid va kiymatli toshlar solinadigan quticha

**B†‘** So'z ahli xirmonining boshoqchisi va so'z qiymatbaho toshlari xazinasining poyloqchisi va nazm gulistonining sayroqi bulbuli; yaKjni Navoiy deb taxalluslangan Alisher shunday arz qiladiki, so'z bir dur bo'lib, uning darKjyosi ko'ngildir. Ko'ngil shunday bir o'rın bo'lib, unda mayda va yirik maKjnolar to'plangandir. Bu shunga o'xshaydiki, gavhar darKjyodan g'avvos vositasi blan chiqaziladi, uning kiymati esa, toshiga qarab maKjum bo'ladi. So'z duri ham ko'ngildan so'zga pechan kishi vositasi blan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham o'zining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yokqa yoyiladi. Nechunki, gavhar qiymat yuzasidan juda ko'p darajalarga bo'dinadi, hatto bir diramdan yuz tumangacha desa bo'ladi. "Marvaridni dorivor uchun olganda, mayda-mayda qilinib, bir misqolini bir diramdan sotiladi. Agar podshoh kuloqqa soladigan bo'lsa, butun holida olinadi, demak, qiymati mulkligiga va eKjtibori molligiga qarab bo'ladi". So'z durining ayirmasi bundan ham cheksiz va darajasi bundan ham nihoyatsizdir. Shundayki, yaxshi so'zdan o'lgan badanga toza ruh etadi, yomon so'zdan tirik tanga o'duruchi zahar xosiyati paydo bo'ladi. "So'z shunday gavhardirki, martabasini aniqlashdan nutq egalari ojizdirlar: martabasi - yomon so'zning halok qiluchanligidan tortib, yaxshi so'z blan Isoning mu'jiza ko'rsatishiga qadar boradi".

**B†‘** Bu jumla Istambul va Qo'qon bosmadarida quyidagicha buzib berilgan: "Har xaylda necha kishvar bor, va har kishvarda necha shahr va qasaba va kent bor; va har dashtda necha xil sahronishin ulus va har tog'ida necha tavoyif bor".

**B†‘** So'zning turlari shu kadar ko'PKi, o'y lash va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag'a qilmasdan yuzaki bayon kilinsa va qishaliq blan yozib chiqilsa, etmnsh ikki navKjga bo'linib, etmish ikki xil xalqning so'ziga aylanishida hech bir so'z yo'q, lekin bundan ham ko'pdir. U, shundayki, er yuzining etti iqlimining har birida necha mamlakat bor, harbir mamlakatda necha shahar, shaharcha va kent bor va har dashtda necha xil sahronishin xalq, harbir tog'ning kamarlarida va yuqorisida, harbir darKjyoning orolida va qirg'og'ida necha guruh odamlar bor. Harbir jamoaning tillari o'zgalaridan va har guruhnning so'zlashuvlari yana birlaridan o'zgacha va birnecha xususiyatlar blan farhlidirki, bu ayirma o'zgalarda yo'qdir. Shundanki, qushlar, hayvonlar va yirtqichlarning ovoz chiqarishlarida harbiring o'zgacha qichqiriq va aytimlari hamda qaytalanmaydigan navo va xonishlari bor. Ammo so'z va gapdan maqsad maKjni va mazkur maxluqlardan maqsad insondir va u - maKjni va nutqning egasidirki, shuning uchun, bizning so'zimiz uning so'zi ustida boradi. Endi so'zni bayon qilishga kirishaylik: yuqorida turliligi va bir-biridan ayirmasi aytilgan turli shahar, qishloq, tog', o'rmon, va darKjyo xalqlarining hammasida maKjnni so'zlar orqali ifoda qilinadi va u so'zlardan maKjni anglanadi. Bu tillarning barchasidan arab tili nafislik blan ajralgan va badiiylik bezagi blan muKjjiza ko'rsatuchandirki, bunda hechbir til ahllarining daKjvosi yo'q, so'zi, to'g'ri, deyish va ishi taslim bo'lish, xalos. Chunki biluchan buyuk podshoh (xudo)ning muKjjizali so'zi o'sha tilda igan va payg'ambarning saodatga eltuchi hadislari o'sha tilda aytilgandir. Buyuk avliyolar va baland darajali mashoyixlar surgan haqiqat va maKjrifatlarini, tahrir kiyimiga kiyintirgan maKjni go'zallarini ko'proq o'sha muborak ibora va qutlug' so'z va ishoralar blan ado qilibdirlar. Bundan so'ngra uch navKj til, borki, bular hamma tillarning aslidir va bu tillarning harbiri o'z gapiruchilarining so'zlashuvlariga mosdir. Bu tillarning shaxobchalari benihoyat ko'pdir. Ammo turki, forsi va hindi tillari asl tillarning chiqish o'mnidirki, Nuh payg'ambarning uch o'g'li: Yofas, Som va Homga borib etishadi. Bu qiska so'zning tafsili shuki, Nuh to'fon fitnasidan xalos topganda va uning halokatidan qutulganda, dunKjyo yuzida bashar jinsidan asar va inson navKjidan namuna qolmagan edi. Bu vaqtida Yofsan - uni tarixchilar Abut-turk deb yozganb "Xitoy mamlakatiga yubordi. Somni - uni Abul-furs deb yozganlar - Eron va Turon mamlakatlarining o'rtasiga hokim qildi. Homni esa - uni Abul-hind deb otaganlar - Hindiston mamlakatiga uzatdi. Bu uch payg'ambarzodanining avlodlari va o'zlariga qarashlilari mazkur mamlaqatlarda yoyildilar, u erlarda zichlanib ketdilar.

**B†‘**  
 Abuturk deb atalgan Yofas tarixchilarning bir og'izdan aytishiga ko'ra, payg'ambarlik toji blan ustun va elchilik mansabi blan qardoshlaridan imtiyozli bo'ldi. Uch til: turki, forsi va hindi tillari bu uchovining avlod va qaramlari o'rtasida tarqaldi.

Arab tili blan so'zlash va hindi so'zlar blan voldirash masalasi - biri g'oyatda sharaf va yuqori darajadan va biri nihoyatda nahslik va past martabadan - oradan chiqdi. Endi turki so'zlar blan maqsad ifodasi va

forsi ibora blan so'z maKjnosи masalasi qoldi.

MaKjum bo'lishicha, turk sart (fors)dan ko'ra tezfahmroq, tushunchasi yuqorirok, yaratilish jihatidan sofroh va tozaroq bo'lgan. Sart turkka kamol (etuklik)da chuqurroq tushunchali bo'lib etishgan. Bu hol esa, turk qaraganda fikrlashda va ilmda nozik nuqtalarga erishchan, fazl va rostlik, soflik va to'g'ri niyatidan, sartlarning ilm, fan va hikmatidan maKjumdir. Broq tillarida ortiqqliq va kamchilik jihatidan zo'r farqlar borki, turklar so'z tuzishda sartlarga usto'n kelganlar va o'z so'zlarida belgilari ishlatalishda ortiqqlik ko'rsatganlarki, biz buni xudo xohlasa, o'z joyida ayturmiz. Yana turkning sartga qaraganda yumshoq ko'ngullilikda ortiqqlig'iga bundan ko'ra ochig'roq dalil va ravshanroq guvoh bo'lishi mumkinmiki, bu ikki xalqning yigitni va qarisi, balki kattadan-kichigis бориси orasida aralashish babbarobardir. Bu biri blan u biri o'tasida harqancha aralashish, o'zaro so'zlashish bo'lса, u birining ham bu biri blan o'shancha anglashish va so'zlashishi bor. Sartlar orasida kobiliyat, bilim ahllari va ilm, zihn hamda o'tkir ko'z egalari ko'proqdir. Turk xalqida to'ng va sodda dillar sartdan ko'ra ortiqroqdir.

Ammo turkning kattadan kichigacha, xizmatkoridan begigacha sart tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o'z tirikchiliklariga oid ahvollar ustida so'zlasha olurlar, balki baKjzilar adabiy ravishda so'zlashaolurlar.

Hattoki turk shoirlari forsi tilida rangdor sheKjrlar va shirin hikoyalar yuzaga chikaraolurlar.

Ammo sart xalqining quyi tabaqasidan yuqori tabaqalarigacha, savodsizidan bilimdonigacha hech qaysisi turk tilida so'zlasha olmaydi va so'zlaganning so'ziga ham tushunolmaydi. Agar yuzdan, balki mingdan biri bu tilni o'rganib so'zlashaboshlasa, eshitgan kishi bilib qoladi - uning sart ekanini tushunib oladi...

Turkning asl yaratilishida sartdan ko'ra yumshoq ko'ngulli ekaniga bundan ham ravshanroq belgi yo'qki, hechkim buning qarshisida dam ura olmas. Sartlarning hammasi agar turkcha so'zlashda ojizlik qilsalar, xaqlari ham bor Chunki turk so'zlarini yaratuchi juda ko'p vaqtida mubolag'alar qilib mayda ifodalar uchun so'zlar yasabdirki, to biluchi kishi anglatmasa, bunday narsalarga ishonish ham mumkin bo'lmaydi.

Б† Q. b. - erikmak suzi tushib qolgan.

Б† Bu yuzta so'zni ingichka maqsadlarni ifodalash uchun belgilabdirlarki, bularning hechbiri uchun sart tilida so'z yasamabdirlar. Lekin bularning barchasiga kishining ehtiyoji tushadi, so'zlashish chog'ida kishi unga muhtoj bo'ladi. Bularning ko'pi shunday so'zlarki (forschada), uning mazmunini aslo anglatib bo'lmaydi. BaKjzisini anglatса bo'ladi, lekin bir so'zni tushuntirish uchun birnecha so'zni tizmaguncha bo'lmandi, Bu ham arabcha so'zlar yordами bilan bo'ladi. Turk tilida bu xil so'zlar ko'p topiladi. Masalan, yuqorida mazkur bo'lgan yuzta so'zdan birnechasi ustida shug'ullanib, isbot qilaylik, toki daKjvogar qarshilik ko'rsatganda uyalib qolsin, shuning blan boshqalarini ham bunga solishtirsin.

Shoirlarning kattalaridan baKjzilar "may" taKjrifida mubolag'a qilibdirlar. Bu narsa odat bo'lib ketganki, may ichmoq qoidalari to'g'risida ko'p so'zlar yurguzib, nihoyatsiz xush tabKjlik ko'rsatadilar.

Б† Hajr anduhi - ayriliq qayg'isi.

Б† Dayri fano - yo'qlik dunKjyosi.

Б† IKjtidsiz oshub - haddan ortik hayajon, to'lg'anish.

Б† Ashk selobi - ko'z yoshi seli.

Б† MaqtaKj - sheKjrning oxiri (matlaKjning qarshisi)

Б† Gulbun - gul daraxti.

Б† Mahjur - mahrum maKjnosida.

Б† Taarruz qilmoq - to'qinmoq.

Б† MuKjlimб" alamli, og'rituchi.

Б† Uzv - aKjzo.

Б† Masnaviy - ikkilik, yaKjni bir baytda ikki misraKjning qofiyadosh bo'lib kelishi.

Б† Umda - muhim.

Б† Agar ular (forslar) bajarolmagan so'z yasash to'g'risida birin-birin to'xtalaberilsa, so'z uzayib ketadi, chunki bu juda ko'pdir. Yana, barcha shoirlar qoshida ravshan va hamma so'z ustalari oldida aniq maKjumdirki, sheKjrd "tajnis va iyham" (misralar oxnrida jinsdosh, shakldosh so'zlar ishlatisib, turli maKjnilar chiqarib, so'z o'yini qilish) qoidasi umumlashgandir. Bu chiroylig ibora va go'zal belgilarda forsidan ko'ra (turkchada) ko'prok tajnismi bildiruchi so'z va iyhamni anglatuchi nuqtalar borki, bu nazm (tizma so'z)ni bezantiradi va sanKjatlil kiladi. Masalan: "ot" so'zini olaylik, ism (birovning ismi), minadigan ot, toshni yoki o'qni ot, deb aytigandagi buyruk maKjnolarida keladi.

Б† Had va hasrб" chek va chegara.

Б†‘ SamarBТ“ meva.

Б†‘ Hamvor - tekis.

Б†‘ 21 MaKjrusBТ“ (belgili) va majhul (belgisiz) qofiyadagi "voviy (o', u) va "yoyiy" (i, e) qofiyalar forsiy sheKjrlarda kelsa ham, ikki belgidan (o'-u, i-e) ortiq kelmaydi.

Б†‘ ShayKji muhriq - yondiruchi narsa.

Б†‘ Murur - o'tish.

Б†‘ Muqammirga burd jihatidan amrbТ“ qimorbozga yutish jihatidan buyruq.

Б†‘ Iriq - nozik, ingichka.

Б†‘ Dom - tuzoq.

Б†‘ Daqiqroq - nozikroq, ingichkaroq.

Б†‘ "Mo" forsha, "nahnu" arabcha ko'plik, kishilik olmoshi (biz).

Б†‘ "Va bu nav"... - bu xilda ko'p so'zlarni uch harakat (uch xil unli) blan yasabdirlarki, hozirda ham tarqalgandir. Jumlanı kengaytirish va qofiyani osonlashtirish uchun birnecha harfnı bir-biriga sherik kilibdirilar. Shu jumladan "alif" blan "ho" (alifBТ“o; hobBТ“so'z oxirida keladigan a demak) orasida sheriklik va munosabat paydo qilibdirlarki, bir so'zning oxirini alif (a) blan qofiya qilsa bo'ladi.

Б†‘ "Vov" - qalin "u" unli tovushi (undosh "v" ga ham aytildi) "zamma" esa - ingichka "u" tovushining belgisi.

Б†‘ Arab harfi blan yozganda "hur", "dur" so'zida vov (u) yo'q, "zammali" so'zdir.

Б†‘ "yo" - "i" unli tovushi ("y"ga ham aytildi), "kasra" esa - pngichka "i" tovushining belgisidir.

Б†‘ "Sodir" va "qodir" so'zlarida "yo" (y) qo'yilmaydi, "kasrali"dir.

Б†‘ Suhulat - engillik.

Б†‘ "Va bu alfoz..." - Bu so'zlarni yasovchilar ko'p joylarda juda mayda narsalarga to'xtalib, qiziq mazmun va maKjnilar uchun so'zlar yaratibdilar.

Б†‘ Masodir - masdarlar.

Б†‘ G'izo - eguluk.

Б†‘ Ajzo - juzlar.

Б†‘ Va alo hozal qiyosBТ“va shunga o'xshashlar.

Б†‘ Umda - ahamiyatlari.

Б†‘ Sho'ru shayn - to'palon va g'avg'o.

Б†‘ Mutamayyaz qilsa - ajratsa.

Б†‘ MaKjhudiy albisaBТ“ maKjum kiyimlar.

Б†‘ Ammo yirikroq so'zlar to'g'risida aytaylik: arab sarfi atamasining boblarida bir bob borki, uni "mufoala bob" deb ataydilar. Bunda bir so'z aytilsa ham, ikki kishining ish-harakatini o'z ichiga oladi, o'zi bir xilda keladi, masalan "muoraza" (arz qilishmoq), "muqobala" (qarshilashmoq), "mushoara" (sheKjr aytishmoq), "mukolama" (so'z aytishmoq), bu keng bob bo'lib, bunda ko'p foydalar bor. Forscha yozuchilar shuncha ustalik va mohirlik daKjvosi blan bu foydadan mahrumdirlar. Ammo turkning so'z ustalari bu foydaga qo'l uzatib, masdarga bir "shin" ("sh") harfi qo'shish blan o'sha maqsadni topganlar.

Б†‘ "Va bu lafz..." - Bunday so'zlarni yasagan ulug'larga, shunday yaxshi ish qilganlari uchun, rahmat aytish kerak. Bu ustalik blan sortning so'z ustalaridan tamom ustun chiqibdirlar.

Б†‘ Yana arab sarfi atamasida ikki mafKjullik (ikki ishlovchili) feKjllar borki, uning ishlatalishi ham muKjtabar va kengdir. Bundan ham sortlar chetda qolganlar, turklar esa bunga ham juda yaxshi ravishda iyarganlar. Masalan, arabcha: "AKjtaytu zaydan dirhaman" (Zaydga aqchani berdim) tarkibida uch so'z bor, ular (turklar) so'zga bir harf ortdirganlaridek, arablar, bir zamir (harf) ni ortdirganlar, buning blan juda ixcham va foydali bo'lib chiqqan.

Б†‘ Pesha - hunar.

Б†‘ Guna - o'xshash, dek.

Б†‘ Mazanna - shubha, shak.

Б†‘ Haysiyat - jihat.

Б†‘ Diqqat - noziklik.

Б†‘ "Chim" harfi vasl qilmoq - "ch" harfi qo'shmoq.

Б†‘ Yana bir rang yoki bir sifatni aslidan ortdirish uchun avvalidagi birinchi harfiga bir "pe" ("p") yoki "mim" ("m") ko'shnb, u narsada ortiqloqni bildiradilar.

Б†‘ Yana bir "vov" ("v") va "lom" ("l")ni baKjzi so'zga qo'shib, bir maxsus sifatni belgilaydilar, bunday so'zlar podshohlarning urush asboblari yoki bazm ishlarida qo'llanadi.

Б†‘ Ulviy - yuqori.

Б†‘ Rusux - mahkam turish.

Б†‘ Sitam zarif - bechora, xushfeKjl.

Б†‘ Taammul - fikrlash, o'yash.

Б†‘ VusKjat - kenglik.

Б†‘ Fushat - ochiqliq.

Б†‘ Kerakki, bu tilda har navKj so'z ayta olish, go'zal narsalar yozish, sheKjrlar yaratish va chiroyli hikoyalar ijod qilish osonroq bo'ladi, voqiKjda ham osonroqdir.

Б†‘ Jomiyyat - to'liqlik.

Б†‘ Bas, yuqoridagi sabablardan shunday malum bo'ladi, bu tilda ajoyib so'zlar va ifodalar ko'pdir. Buni yoqimli tartib va o'ziga tortuchi tarkib blan bog'lamoq (tizmoq)ning kiyinligi bor. Yangi boshlovchining ko'ngli u sheKjri qiyinlik blan bog'lamokdan zadalaniib, nafratlanadi va engillik sari mayl qiladi. Shunday ish birnecha marta voqiKj bo'lgach, tabiatunga tortilib qoladi va odatlangan narsasini qo'yib, mushkul bo'lgan va odatlanmagan narsaga mayl qilmoq og'ir bo'ladi.

Yana shunisi ham borki, fahmlı kishilar ushbu xildagi ishga kuchsizlarning ham moyil, balki mashg'ulligini ko'rgandan keyin zamonning rasm va odatidan chetga chiqmoqni munosib ko'rmas va shu yo'lda qolar. Yangi boshlovchida yana shunday odat borki, tabKjidan biror narsa bosh ursa, yaKjni ijod qilsa, u ijodning o'ziga sevimli bulishi tabiiy, uni hunar egalariga arz qilib, chiroylik ko'rsatishni istaydi. Hunar egalari forsicha kuylovchi bo'lganlaridan va turk tilidan bahrasiz ekanliklaridan, uning tabKji u tomondan qaytib, bu hunar blan mashg'uł kishilar sari mayl qiladi.

Shu tomonqa mayl qilgandan keyin, turli yo'llar orqali shu guruhdan bo'lib qoladi. Chunonchi, bu zamonda shunday bo'lgandir. Harqanday bo'lsa bo'lsin, har holda turk tilining forsiga qaraganda bu qadar ortiqligi va haqiqatda mucha noziklik va kengligi sheKjr sohasida yoyilmagan va bekiklikning yashirin uyiga tushib qolgan edi, balki tashlandiqlik holiga yaqinlashgan edi.

Б†‘ Bu kamina hali yoshlik chog'imda, og'iz qutichasidan biroz gavhar ko'rinasboshlab, u gavhar hanuz nazm (sheKjr) ipiga tizilaolmagan paytda, ko'ngil darKjyosidan nazm ipiga tortilgan gavharlar tabKj g'avvosi harakati blan og'iz sohiliga kelaboshlamoqni istab qoldi, lekin yuqorida aytilgan qoidaga muvofiq forsichaga tomon buruldi. Ammo tushunish yoshiga qadam qo'yilganda, tangri aslda tabKjimizda g'aroyib narsalarga maylni va nozik ham qiyin narsalarni anglashga kirishishni tabiiy qilgani uchun, turk so'zлari ustida ham mulohaza yurgizishni lozim ko'rildi. Bu holda shunday bir olam namoyon bo'ldiki, o'n sakkiz ming olamdan ortiqroq. U erda tabKjga zeb va zinat osmoni malum bo'ldiki, to'qquz falakdan ortiqroq. U erda fazilat va yuqorilik xazinasi uchradi, marvaridlari yulduzlar gavharlaridan ko'ra yaltirog'ichroq; bir chamanzor yo'ludqidi, gullari ko'k yulduzlaridan ko'ra ochilganroq. Bu xazina va chamanzorning atrofi el oyog'i etishdan asralgan va qiymatbaho narsalari boshqalarning quli tegishidan saqlangan edi. Ammo xazinasining iloni qonxo'r va chamanzorining tikoni son-sanoqsiz edi. Xayolga keldiki, hamono, tabKj ahllari (shoirlar) bu ilonlarning nayzasidan qo'rqib, bu xazinadan babra ololmay o'tgan ekanlar va ko'ngilga shunday tuyuldiki, go'yo, nazm to'dasining gulasta bog'lovchnlari bu tikanlar sanchilishi zararidan hadiksirab, bu chamanzordan gulni qo'lga kiritolmay yo'l tutgan ekanlar.

Bu yo'lda himmat oliv va tabKj botir va parvosiz bo'lgan uchun, o'tib ketalmadik va tamoshosidan to'yalmadik. U olam tevaragida tabKj qo'shuni xujumga kirishdi va u osmon havosida xayol kushi yuqori uchishlar ko'rsatdi, u xazinaning qiymatbaho toshlaridan ko'ngil sarrofi nihoysiz qiymatli laKjl va marvaridlari oldi, ko'ngil gul

teruchisi u chamanzordagi gullardan son-sanoqsiz hushbo'y gullar terib qo'yniga soldi.

Bu olingen hadyalar orkali boy.tik va g'animatlar blan ko'ngil to'qlig'i muyassar bo'lgach, bu natijalarning gullari zamon ahliga benihoyat va bemiqdor ochilaboshladi va boshlariga beixtiyor sochilaberdi.

Shu ijodlardan biri: "G'aroyibus-sig'ar" ("Bolalik qiziqliklarn") devoni - kichik yoshlikda yozilgan va tahririm orqali ziynat topgandirki, bunday ajoyib maKjolarni qiziq so'zlar libosi blan kiyintiribman va xalq ko'nglini undagi g'aribiston ahli o'ti blan kuyduribman.

Б†“ Yana: "Navodirush-shabob" ("Yigitlik nodiralari") devoni - bu, yigitlik davrlarimda qalamim bayonidan namoyish yig'iniga va bezanish gulzoriga kirgandirki, u ajoyibotlar tamoshosi orqali yigitlik dunyosiga g'avg'o solibman va dunKjyo yigitlari ko'nglidan orom va qarorni olibman.

Yana: "Badoyiul-vasat" ("O'rta yosh badialari") devoni - buni xayolim qalami umrimning o'talarida bezashga naqqoshlik va pardozilashga sihrbozlik qilgandirki, u badialar orqali shaydo ko'ngillar eshigini ishq toshi blan qoqibman va u uyga fitna va to'palon o'tini yoqibman.

Yana: "Favoidul-kibar" ("Qarilik foydalari") devoni - uni hayolim qalami tirikligim oxirlarida chin suratxonasing rashkini keltiruchi va jannatga tenglashuchi qilibdirki, unda ulug'larga foidalar toza suvini etkazibman va havaslari shuKjlasiga nasihatlar zulolidan suv uribman.

Bu to'rt devon ovozasin butun dunKjyoga etkizganidandan so'ng, "Xamsa" panjasiga panja uribman. Birinchidan: "Hayratul-abror" ("Yaxshilar hayratlanishi" bog'ida tabKjim gullar ochib, Shayx Nizomiy "Maxzanul-asror"i ("Sirlar xazinasi")dan boshimga marvaridlar sochilibdir,

Yana - "Farhod va Shirin" shabistoniga hayolim yuz tutganda, Mir Xusrav nafasi "Shirin va Xusrav" o'ti blan chirog'imni yoritibdir.

Yana: "Layli va Majnun" vodisida ishqim kezib, Xoja Himmatiy "Gavharnoma"sidan keng yo'limga gavharlar etkizgandir.

Yana: ko'nglim "SabKjai sayyora" ("Yetti uchar yulduz") rasadini bog'lab, Ashraf "Haft paykar"idan etti hur yuzlini huzurimga taqdim etibdir.

Yana xotirim muhondisi "Saddi Iskandariy" asosini solib, Jomiyning "Xiradnama"si orqali tuzatish va yordam nagorasini chalibdir.

"Xamsa" ni yozish ishidan bo'shaganidandan keyin, xayolimning dunKjyo kezar otini podshohlar tarixi dashtnga qarab chopibman, shunday qilib yozuv qorasi zulmatidan "Zubdatut-tavorix" ("Tarixlar xulosasi")ni chiqazib, podshohlarning o'lgan nomini bu tiriklik suvi blan turgizibman.

"Nasoyimul-muhabbat" ("Muhabbat shabbodalari") hidlari bayonidan halamim yaxshiliklar keltirgach, avliyolarning muqaddas ruhi foyzidan dunKjyo to'libdir.

Б†“ "Lisonut-tayr" ("Qush tili") ovozi blan qo'shiq aytib, haqiqat sirlarini qush tili ishorati blan majoz suratida ko'rsatibman.

"Nasrul-lualiy" ("Marvaridlar sochmasi") xazinalarining tarjimasiga etganimda, "Nazmul-javohir" ("Javharlar tizmasi") blan yaKjni qizlarining kiyimlarini bezantirdim.

"Mizonul-avzon" ("Vaznlar torozisi") darKjolarida g'avvos bo'lib, bu yo'l blan Nasir Tusiyan uzr tiladim.

Yana tag'in bundan boshqa risollar ustida qalam tebratganmyan va turli maktublar yozganman, xuddi shuningdek forsi so'z ustalari va afsonalarga pardoz beruchilar ham varaqlar bezaganlar va tayyorlaganlar, agarda dona hakam to'g'rilik blan ko'z solib, burungi forsi va so'ngi turkining yumshoqlik va nozikliklaridzn bahra olib, harbirining bahosini va darajasini aniqlagan vaqtida, umidim shunday va xayolimga bunday kelurki, so'zimning martabasi yuqorilikdan quyig'a inmas va bu tizmalarim (ijodlarim) yulduzlar eng oly darajadan o'zga erni qilmas.

Bu so'zlardan xasm (qarshi) bunday anglamasmi va daKjvogar bunda gumon qilmasinki, tabKjim turk tiliga mos tushgani uchun, uni maqtashda mubolag'a ko'rsatmadaman va forsi tiliga munosabatim ozroq bo'lgani uchun uni inkor qilish va yo'qqa chiqarishga tirishmoqdaman. Forsi so'zlarini va iboralarni hechkim menchalnk ko'proq o'zlashtirmaydi va qo'lga olmaydi, yaxshi va yomonini hechkim mendan ko'ra yaxshiroq bilmaydi.

Umrim bog'i toza bahorining qirchillama chog'i va hayot bog'chasi yangi o'sgan sabzazorining tobiga kelgan vaqt o'n besh yoshdan qirq yoshgachadir, bu paytda kishilar to'dasining ko'ngil bulbuli har gul jamoliga berilgan va ruhi parvonasi (kapalagi) har shamKj husniga aldanuchan bo'ladi, vaqtning yaxshisi mana shu vaqtlardir. Bu vaqtarda ko'p qiziq voqilar yuzaga keladi, u voqia birovning husi va nozini yoki ishq va umidini bayon etishga sabab bo'ladi. Bu hol g'azal (ishqiy sheKjrlar) yo'li blan bo'ladi, kishi yo o'zi ijod qiladi, yoki boshqalarnikini o'qish blan mashg'ul bo'ladi. Shoirlarning devonlaridan men mutolaasi blan shug'ullanmagan to'plam juda oz; xususan, ishq va dard ahlining rahbari va ilg'ori Amir Xusrav Dehlaviyning devoni oshiqlikda dard va zorlanish, kyunishni u tarqatdi va uning ishq mashalasidan tushgan yorug'lik qorong'i dunyoning hamma eriga yoyildi.

Yana hakiyat ahlining sarxili va qadrlisi Xoja Hofiz Sheraziyning toza ruhdan nishon beruchi nafasidan chiqqan ingichka va nozik sirlarini o'kudim.

Б†“ Yana bu faqirning piri va ustozi, tariqat ahlining to'g'ri yo'l ko'rsatuchisi, xudoga yakinlarning yo'l boshlovchisi va shayxul-islomi Abdurahmon Jomiyning ruhparvar latifalarini va jon bog'ishlovchi asarlarini o'qiganman, u kishining harbir g'azali xudodan ingan vahydek va harbir risolasi payg'ambarning hadisidek yuqori darajali va yuksak o'rinnlidir. Har so'zi qiymatda asl marvariddan yuksakroq va toblanishda o'tli laKjldan ko'ra yonuchanroqdir, bunda yuqorida mazkur bo'lgan ikki azizning muKjjizali so'zidan taKjm va bahra bor, bunga o'zining ishq etukligi hamda etishgan kayfiyati qo'shiladiki, bu juda kiziq narsa! Mana shularning barchasini ko'p qatla o'qib o'tganman, balki ko'pini yodlaganman. qasida va g'azallarining ingichka nuqtalarinn va nozikliklarini bilganman. Balki qiziqroq va nozikroqlariga payravlik qilganman.

Qasidalardan Amir Xusravning "DarKjyoyi abror"ini tekshirganman. Bu qasida to'g'risida shunday so'z

mashhurdir, Amir Xusrav: "Ko'z ming baytdan ortiq bo'lgan devonlarimning g'azallari, qasida va masnaviyalarimning baytlari dunKjyo yuzidan yuvulib ketsa va zamon betidan o'chib yo'q bo'lsa, lekin bu qasidam qolsa (buning o'zi hamma mazmunni o'z ichiga olganligidan) shuning o'zi mening fazilalarimga dalil bo'laoaldi", deyar ekan.

U qasidaning boshlanmasi mashhurdir:

"Podshoh nog'orasining ichi bo'shu, shovqun-suronn bosh og'rig'idir.

Ho'l-kuruqqa qanoat qilgan kishi darKjyo va quruqlikning podshohidir"

Bu sheKjrga qarshi hazrati Maxdumiy (Jomiy) darhol javob aytibdirlar va, otini "Dujjatul-asror" ("Sirlar teranligi") deb yozibdirlar. Boshlanmasi bunday:

"Podshoh saroy ayvonining jimjimasi eng yuqoridagi yulduzning peshtoqidan yuksak bo'lganda ham, bilgilki, undan din qalKjasining devoriga raxna paydo bo'ladi".

Agar u (Xusrav sheKjri) yaxshilar darKjyosi bo'lsa, bu bahor bulutidirki, martabada undan balandroq va bahrada undan foyda beruchanroq bo'lib, soya solish uchun uning ustiga yoyilaoladi va boshiga marvaridlар ham sochaoladi.

Faqir yuqori martabalik ulug'larning har ikkovlariga muhtojlik va gadolik yuzidan payravlik qilibman va otini "Tuhfatul-afkor" ("fikrlar sovg'asi") debman, boshlanmasi shunday,

"Podshohlar tojini zinatllovchi yolkinli laKjl toshi

Ularning boshida xom xayollarni pishiruchi o'tdir".

Б†‘ Bunda ko'p maKjni beruchi ibora, muammoga o'xhash (bekitiqchi) ishoralar qo'shganmanki, bu fan ahlining .mohirlari qoyil qolibdirlar. Har kishining bu xususda shubhasi bo'lsa, hazrati Maxdumning (Jomiyning) "Bahoriston" nomli kitobini ko'rsin, u kitobni "hayot bahoristoni va najot naqqoshxonasi" desa bo'ladi, ana o'sha kitobda bu boshlanmani bitibdirlar va uni dalil yuzasidan keltirib maqtabdirlarki, bu davlat yorlig'in osmonning peshtoqig'a osilsa arziydi va bu saodat tamg'asini Mushtari yulduzi bo'yninga ilib qo'yilsa faxrlanish va shodlikka sabab bo'ladi. U kitobni oldik, bu joyini topib ko'zdan kechirdik va bildikki, men boshda taKjriflab yozganmanu, lekin taKjrimda kamchilik qilibman.

Yana Mir Xusravning "MirKjotus-safo" (Tozalik oynasi") nomli qasidasiga xalloql-maoniy (maKjnilar yaratuchi) Xoqoniy Shervoni payravlik qilgandnr. Boshlanmasi bunday:

"Ko'nglim yosh boladir, ishqning piri til o'rgatuchi muallimdir, yuz qoralik undagi dars bo'lib, miskinlik matabning burchagidir".

Hazrati Maxdumiy uning javobida "Jilour-ruh" ("Ruh ravshanlgi") nomli qasidani aytibdirlar va boshlanmasi bunday:

"Muallim kim? - Ishqdir, xomushlik (jimlik) burchagi uning maktabidir, undagi darsb ў nodonlik bo'lib, dona dilim matabning sabaq o'rganuchi bolasidir",

Faqir ham "Nasimul-xuld" ("Jannat shamoli") qasidasi blan har ikki ulug'larga payravlik qilibmen, boshlanmasi budir:

"Muallim ishqdir, aqlning piri saboq o'uchi boladir,  
bolaga odob berish uchun falak aylanuchi charx bo'ldi".

Bu qasidaga ham ko'p maKjnilar gavhari kiritilgan va umr mablag'i sarf qilingandir.

Б†‘ Yana "Ruhul-quds" ("Toza ruh") qasidasining ovozasini ko'taribman, buning blan qudsiylar (pok kishilar) ruhini toza qilibman, boshlanmasi budir:

"Qanday yaxshiki, qudrat qalami blan narsalar tasvirlandi, u qalamdan har zamon ming xil qiziq naqshlar paydo bo'ladi".

Yana, "Aynul-hayot" ("Hayot chashmasi") qasidasi tiniq suvini etkazib, g'aflat ahlining o'luk badanlariga jon kirgizibman, boshlanmasa budir,

"Kecha posbonlari qora chodirlarini to'shaganlarida, oy yuzli go'zallarga jilva tashlaydilar".

Yana, "Minhajun-najot" ("Qutulish yo'li") qasidasida to'g'rilik yo'lini tutib, adashganlarga qutulishning katta yo'lini ko'rsatibman, boshlanmasi budir:

"Kishilarning ko'zi nurlandi yuzing ravshanligidan,  
Jahon ko'z qorachig'i bo'lding, ayni insonlikdan".

Yana, "Quvvatul-qulub" ("Yuraklar quvvati") qasidasini kalamim bitib, haqiqat yo'lida kuchsizlik kilgan ko'ngillarga o'sha quvatdan oziq etibdir, boshlanmasi bunday:

"Jahon - fano katta yo'lining tor manzilidir,

U erda turma, chunki shoh va gadoning o'tar yo'lidir".

Bu olti qasida: hamd, naKjt, sano, vaKjz ham tasavvuf va haqiqat ahli tili blan aytilgan maKjrafatdan iboratdir.

Yana, oddiy (tasavvufchilardan tashqariga) shoirlar yo'li blan issiq, sovuq, namgarlik va qurg'oqlik ahvollari bilinadigan to'rt fasli "Fusuli arbaa" ("To'rt fasl") nomli qasidani kalamim yozgan va to'rt fasl xosiyatining taKjsiriga o'xhash butun dunKjyoga yoyilgandir.

Б†‘ Yana so'z pardozchisi ulug' ustoz Xoja Kalimiddin Salmon qasida maydonining chavandozi va o'z zamonining mislsiz so'z ustasidir, mashhurdirki, sanKjatl qasidasini tuzishda qalam surib, o'n sakkiz yoshida tamomlabdir.

Haqiqatan shunday ish kilibdirk, nazm ahli uning tagiga etishda hayron va uning ustida fikr yurutishda sargardondirlar. TarsiKj (sheKjrdi bir misradagi hamma so'zlarni ikkinchi misradagi so'zlao blan ohnagdosh, qofiyadosh qilib keltirish) sanKjati boshlanmadan keyingi baytlarda bo'laolmaydi, u kasidaning vaznga solinishi to'g'ri bo'lsa-da, ammo asl boshlanmada avvalgi yo'Ining bir so'zida kelishmaganlik bordir. Boshlanma shunday:

"Yuzing sofligi bahorning yuzi suvini to'kdi,

jannatdek joyingning havosi xushbo'y hid tarqatdi".

Bu boshlanmaga taqlid qilgan ko'p so'zchanlar va nazmchilar unga qarshi aytgan bo'lsalar ham, lekin lat egandirlar. Bu faqirning boshlanmasi shudir:

"Bog'chaga bahor faslining mayin shamoli shunday esdiki, Undan og'aynilarga seviklining yoqimli isi etishdi". O'tkur ko'z egalari mulohaza qilsalar biladilarki, bu boshlanma tarsiKj yo'li blan aytigan bo'lib, aybdan xoli va tarsiKj sanKjatiga to'g'ri keladi, hamda buning ustida hechkim qarshilik ko'rsatmaydi. Bu xildagi sheKjrning taKjkid va mubolag'asi uchun yana bir ruboiy ham aytganman. Ruboiy qoidasini yaratgan Xalil binni Ahmadidan tortib, tarsiKj sanKjati blan ruboiy aytigani eshitilmagan, balki yo'qdir. U ruboiy shudir: "Ey, sening yuzing jahonga ziynat beruchi yulduzdir, Ey, sening hiding xushbo'ylikda jonning rohatidir, Sening sochingsiz kishiga aftodalik ketadi, Qora kokiling xuddi fig'onli kechaga o'xshaydi". Yana so'z ustalari va nazmchilar tomonidan yaxshi va maKjql deb topgan Xoja Hofizning yo'li blan forsicha g'azallar devoni tuzganmanki, bandlari olti mingtadan ko'proqdir, bu g'azallarning ko'prog'ida u hazratning sheKjriga taqlid voqiKj bo'lgandir. BaKjzisida g'azal yo'lining yaratuchisi Shayx Muslihiddin SaKjdiyga va baKjzisida ishq o'txonasing shuKjla sochuchisi va dard g'aribxonasing yosh to'kuchisi Mir Xusravga va baKjzisida etuklik yuksakligining nurli quyoshi hazrati Maxdumga payravlik voqiKj bo'lgandir. Yuqorida aytigan azizlarning ahvollari to'plangan bu devon xaloyiq o'rtaida yoyilgan va zamon ahlining tabKjlari u asarga qaratilgandir. Unda ko'p turli dilkash ifodalar va ko'ngilga yoquchi maKjnolar bordirki, tafsili bu faqirdan munosib emas. U devonda harxil nazm turlaridan, muqattaot, ruboiyot, masnaviy, tarix, lug'oz va shu jumladan besh yuzga yaqin muammo tilimdan tirikchilik sahifasiga yozilgan va qalamim kecha-kunduz varaqlariga naqsh qilgandir, bularning ko'pi Hazrati Maxdum (Jomiy) nazariga etishib, u xazratning tuzatish va maqtashlari sharafiga erishgandir.

B†' Bularidan boshqa, yigitligim zamoni va yoshligim kunlari davrlarida ko'prak sheKjrdi o'yin ko'rsatuchi va nazmda afsunbozlik qiluchi shoirlarning shirin sheKjrlaridan va rangdor baytlaridan ellik mingdan ortiqrog'ini yodlaganman. Ularning zavq va quvonchidan o'zimni ovutibman.

U sheKjrlarning yaxshi va yomon tomonlari ustida fikr yurutibman. Maxfiy nozikliklariga o'ylash va fikrlash orqali etishibman. Forsi so'zlarning ayb va hunarini o'ylab, tushunishda tabKjim o'zini qaytarmaydi, balki u vodini kezishda qalamim chopari yo'rg'alik blan qadam etkizmagan eri qolmagandir. O'ttiz yildan ortiq va qirq yilga yaqindirki, bilim va hunar ahli oldida dunKjyo mamlakatlarining buyuk shahri va ulug' o'lkasi bo'lib tanilgan Xuroson mamlakatining barcha nazm ahli, shirin so'zli shoirlari, hurmatga loyiq adiblari, har mazmunda varaqalar yuzida bergen zynnatlari va har turli so'zlar blan juzKjlar yuzasida qilgan bezaklarini bu faqir suhabatiga etkazgan va bu kuchsiz huzuridan o'tkazgan, yaxshi-yomonini ajratish va tuzatishni iltimos qilgan, xotirga kelgan nuqtalarni aytiganda, insof yuzasidan qabul qilgandirlar. Agar baKjzilari tortingan bo'lsalar, dalillar blan eslariga tushirilgan. Shundan so'ng qabul qilib, o'zlarini rozi va xursand bilgandirlar.

Zarralarni ko'ruchi ko'pgina maKjni ahllari va ingichka nuqtalar ustida so'z yurutuchi nozikfahm guruhlar Anvariya va Salmon sheKjri ustida ikki tomon bo'lismib bahslashganda, bir-birlariga so'z o'tkazolmagandan keyin, bu faqir oldiga muhokama uchun keltirib turar va harqanday bir hukm topganlarida taslim bo'lib, janjallari bироqliq bo'lgandir; G'azalda Mir Shohiy va Mavlono Kotibiy va boshqalar to'g'risida bu yo'sinda, masnaviyda hazrati Shayx Nizomiy va Mir Xusrav Dehlaviy to'g'risida ham bu mazmunda ko'p voqiKj bo'lgandir.

B†' Barchasidan muhimrok hujjat shuki, to'g'ri yo'l ko'rsatuchi hazrat Jomiy, forsi so'zda u kishining so'zidan ko'ra yuqoriq so'z yo'qdir, ko'proq kitob, risola, g'azallar va qasidalarda maKjni gavharlariga nazm ipiga taqqan va ko'ngil maxfiy uyidan xaloyiq tamoshogohiga jilvalantirganlarida, o'shalarning qoralamasini ilgariroq bu faqirg'a iltifot va ishonch yuzasidan berar va:

"Bu varaqlarni ol, boshdan-oyoq qarab chiq va xotiringga harqanday aytadigan so'z kelsa ayt", der edilar. Yuqorida aytigandek, mulohazalarimni aytasam, maqbul tushar edi. Bu daKjyoga dalil shuki, o'ndan ortiq kitob va risolalarida ul hazrat bu faqirning otini mazkur qilibdirlar va ko'pida fahm, idrok va shunga munosib so'zlarga nisbat berib, yozibdirlar: Bu yaxshi qarash taKjsiri blan so'z ahllaridan adib va shoirlar guruhining yig'in joyi va ilmnинг manbai bo'lgan podshohlar podshohining ko'kka etar suhabatlarida va jannat ziynatlari xizmatlarida o'ttiztan ortiq bu faqirning so'ziga yuksaklik va erkinlik, o'ziga suhabatidan ulug' eKjtibor va so'ziga o'zi jihatidan buyuk martaba va daraja berilar edi.

Xudo iltifotining egasi va bepoyon haqiqat nurlarining manbai, muborak ko'ngli ilmlar gavharining darKjyosi va go'zal xotiri tuproqqa teng bandalar zotining kimKjyosi bo'lgan podshohlar podshohi oliy majlisida bu guruhning atama va qoidalari to'g'risida so'z bo'lganda, ko'proq bu faqirga xitob qilar, adib va shoirlar ijodi to'g'risida birar narsa aytilda, so'zni bu kaminaga qaratar edilar. Bu tuproqning martabasini osmonga shuncha ko'tarib, bu zarraning qadrini quyoshdan shu qadar oshirib edilarki, o'zlarnning quyoshni ravshanlantriruchi tabKjlaridan yuzaga chiqib, o'z gavhar sochuchi qalamlaridan naqsh topgan va o'zlarining ahvollari kayfiyatini batamom tasvirlagan risolalarida bu bayri qullarini sheKjri yo'lining barcha sohasida maqtab yozib, sohibqironlik laqabi blan faxrlantirgan va mislsiz, tengsiz kabi sifatlar blan imtiyozlantirgandirlar.

Aniqdirki, oliy tabKjlari zamon mushkillarining o'lchovi, muborak zehnlari olam nozikliklarining hal qiluchisi va sirlarini biluchisidir.

Bu kamtar banda agarchi tuproqdan tuban bo'lsam ham, ammo ul quyoshning tarbiyalari blan rang-barang gullar ochdim va bu beiKjtibor agarchi zarradan kamroq esam ham, ul bulutning quvvatlashlari blan turli-tuman durlar sochdim va dilso'z baytlarim yolvoruchilar o'rtaida fitna va g'avg'o soldi, bazmni qizituchi g'azallarni ishq ahllariga oh va vovaylo soldi.

So'zning qisqasi, mucha kuchli dalillar va buyuk shohidlar orqali, bu fanning forsicha va turkcha sheKjri bobida bu faqirning maKjumotiligi, balki mohirligi aniq va ravshan bo'lgandan keyin, agar birini boshqa biriga ortiq ko'rsam, bu toifaning kishilaridan hechkimsaga taslim bo'lish va "to'g'ri" deyishdan boshqa so'z va majol qolmasa kerak. Xususan, mucha qatKjiy dalil blan aniqlangach, shohidlik yuzasidan bu qoralamaning so'zi emas, balki har

harfi farKjyod uradilar va g'avg'o ko'taradilar.

B†‘ Yana bir xulosa shuki, mamlakat arab xalifalari va sultonlari qo'lida ekan, falak u vaqtida shoirlarga arab tilida jilvalandi, chunonchi, Hasson Sobit va Laqitdek so'z podshohi suxandonlar va maKjni yaratuchi go'zal so'z egalari paydo bo'ldilar va o'z tillarida sheKjr aytishning dodini berdilar.

Bu munosabat blan arab podshohlaridan Ibrohim Mahdiy, MaKjmun xalifadek va bulardan boshqa podshohlar va podshohzodalar sheKjrlar va qasidalar aytdilar, foydalar keltirdilar.

DunKjyoning baKjzi iqlim va o'lkasida sort podshohlari mustaqil bo'lgandan keyin, shu munosabat blan forsiguy shoirlar paydo bo'ldilar. Qasidada: Xoqoniy, Anvariyy, Kamol Ismoil, Zahir va Salmon; masnaviyda fan ustozn Firdavsiy, zamonining nodiri Shayx Nizomiy va hind hunarmandi Mir Xusrav; g'azalda o'z vaqtining yaratuchisi Shayx Muslihiddin; va asrining yagonasi Xoja Hofiz Sheroyi kabilar etishdi. Bularning taKjrifi yuqorida bir ozgina aytilgan va sifatlari to'g'risida qalam urulgandir. So'zni cho'zmoqning hojati yo'q, uzundan-uzoq so'zlashni maKjni ahli yaxshi hnsoblamaydi. Bu munosabat blan sort podshohlaridan ham sulton Tug'rul va Shoh ShijoKjdek yuqori qadrli podshohlar va baland martabali yulduz sipohlar rangdor baytlar, shnrin g'azallar aytdilar, asarlari o'z zamonlarida mashhur bo'ldi va turmushlari varaqlarida yozildi.

Mamlakat arab va sort sultonlaridan turk xonlariga o'tgandan so'ng, Halokuxon zamonidan so'ngra sulton sohibqiron Temur-Ko'ragan zamonidan tortib farzandi Shohrux sulton zamonining oxirigacha turk tilida yozuchi shoirlar, shu jumladan ul hazratning avlodlaridan ham xushtab podshohlar paydo bo'ldilar.

Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi. Lekin yuqorida aytilgan forsi shoirlar qarshisiga chiqaoladigan, yolg'iz Mavlono Lutfiyidan o'zga kishi paydo bo'lmadi, u kishining tabKj ahli qoshida o'qusa bo'ladigan birnecha boshlanmalari bor. Podshohlar ichidan ham, sulton Bobirdan boshqa, hechqaysisidan sheKjriy asar yuzaga chiqmadi va varaq yuziga naqsh qilarli biror narsa qolmadidi

B†‘ To bu vaqtgachaki... Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodirxon..: podshohlpk taxtiga o'turgach va mamlakat so'rovchilik o'rinda orom topgach, mamlakat ipiga tinchlik gavarlarini tizdi, jahon ekinzoriga jamKjiyat urug'larini ekdi. Sog' qalbi maKjnilar konining gavhari... bo'lgani uchun, so'z ahlini yuqori darajaga ko'tarish va rivojlantirish yuz berdi. Har ilmda foydali asarlar, har fanda natijali yozishmalar yaratdilar, qiziq kitoblar va ajoyib devon, g'azal, qasida va masnaviy kabi sheKjr turlari yuzaga chiqdi va hamma yoqqa yoyildi. O'zlar ham, garchi ham forsi, ham turki tilida aytmoqqa qodir bo'lsalar-da, ammo asl tabKjlarining tortishi va shu tilning tarqalgan bo'lishi munosabati blan turki tilda devon yaratishga mayl qildilar va ko'ngulga yoquchi baytlar, tengdoshi yo'q g'azallar tuzdilar.

Aytib o'tilgan, bunda ko'rsatilgan sifat va tartibda taKjrifi yozilmagan va boshqa podshohlar, balki pok nafasli shoirlar tomonidan voqiKj bo'lмаган bu xildagi turkcha devon yuzaga chiqdi va oraga tushdi, uning toza hayotining fayzi quyosh chashmasidan o'tib ketdi va bu toifaning bebahralari bu ruh ozig'idan bahramand va lab tashnalari bu tiriklik suvidan serob bo'ldilar. Shuning blan birga podshohlar podshohining muborak xotiri, quyoshday ravshan ko'ngli shunga ham moyilki, turk shoirlari o'z tillarida sheKjr aytishga mashg'ullik qilsinlar va qatma-qat bo'lib chirmashgan ko'ngil g'unchalari bahorning yoqimli shamoliga o'xshash nafaslar blan guldek ochilsinlar. Iltifot va g'amxo'rlnk yuzasidan baKjzi sabablar topib sheKjr aytishga hukmlar ham joriy bo'ldi, so'z uslubini belgilashlar va aytlishi ustida taKjlimlar izhor qilindi.

B†‘ Turk xalqining hush tabKj bekleri, mirzadolari va qobiliyatli zihn egalari bu yo'lida kerak darajada mashg'ullik qilolmadilar va u xilda ijod natijalarini ko'rsataolmadilar, ulardan yaxshi aytaolish umidini qilsa bo'lar, balki bu umidni ularning turmush ahvolnga yaqinlashtirilsa bo'lar edi. Qiziqrog'i buki, bilarman podshohnipg bunday targ'ib va undashi, muruvvat va maqtashiga iyarish va muvofiqlashish qoidasini unutib, bosh tortish va adashish yo'lini tutib, ko'pi, balki borisi forsiga moyil va u til blan sheKjr aytuchi bo'ldilar. Buning sababi shundan o'zga bo'laolmas: turk tili taKjrifida yuqorida aytilgandek, agarchi so'zlar ko'p, ibora (jumla qurulishi) keng, maKjnolar ajoyib, aytlishda raxonlik bo'lsa-da, ko'ngilga yoquchi qilib tuzishda qiyinlik bor va diltortar qilib tartib berishda tabKj mehnat va azob chekar.

Turk tili sharhida birnecha betni bezash va pardoqlashni, unda hazrat sulton tabKjlarining yoqimliligi va zihnlarining mahoratini sharh etmoqni va oliy raKjylari tartib bergan devon to'g'risida beadablik qilib birnecha so'z aytmoqni lozim ko'rildi.

Ul hazrat borib turgan donolik va benihoyat chuqur tushunish yuzasidan bu fan egalariga va bilim arbobiga taKjlimlar bergan va bu yo'lida undaganlar, lekin bular ul hazratning nozik so'zini yo anglamay, yo anglasalar ham buyurulgan yo'sunda amal kilmay, yoki qilaolmay keldilar.

Bu kamtar ul hazratning pok nafasi xotirasini saqlab, ijrosi lozim bo'lgan hukmlariga bo'ysunib va farmonbardorlik qilib, ko'nglimdan va tilimdan kelguncha, qalamim va qo'limda kuch bor deb sezguncha ul hazratga qullik qilib va u qulliq blan o'zimni saodatli va xursand sezib, hatto shogirdlik blan o'zimni sharaqli, aziz, faxrli va boshi ko'kka etgan deb bildim. Yillar bo'yicha turk tili va nazmi qoida va uslubi to'g'risida bilmaganlarimni so'rab, qiyinchiliklarimni, mushkullarimni hal qiluchi huzurida arz qilib, buyuk foydalar topib, zo'r natijalar ko'rdim. Ul xazratning taKjlimi va tarbiysi blan, yo'l ko'rsatishi va quvvatlashi blan ishim ul erga etdiki, o'z pok tabKjlar natijasidan chiqqan o'z maorifparvar qalamlari tahriri va o'z yoqimli nutqlarining yozmalari bo'lgan risolalarda, yuqorida aytganimcha, mening laqablarimni qanday nomlar blan yozganlarki, qaytarib aytshnning hojati yo'q.

B†‘ Bu bandaga ham xudoning ismi bo'lgan "Almutakallim" ("so'zchan") unvoniga ega bo'lisl, xaloyiq orasida so'zchanlikda tengdosh va qurdoshlarimdan farq va eKjiborga, ulug' nom blan ovoza va shuhratga ega bo'lisl ul hazratning marhamat va g'amxo'rliklari orqasida yuz berdi. Yuqorida mazkur bo'lgan va to shu damgacha bu guruhdan hech kimga to'plash yuz bermagan va intiroi tuyassar bo'lmagan devon, masnaviy va boshqa kitob va risolalarni

This is not registered version of TotalDocConverter  
tuzdim va qo'shamasini va mayassasi bo'ldi. Agaren barcha narsani ul hazratning sharafligi bog'lagan  
va oliy laqablariga qo'shgan bo'lsam ham, bularni boshka marhamatlari qarshisida qilib, "Almutakallim"  
ismiga erishuvimga uzr aytish yuzasidan turkiy va sort tili orasidagi ahvol va haqiqatni izohlab, bu risolani  
tuzdim va unga "Muhokamatul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") deb ot qo'ydim,  
Buning blan turk tilining o'tkurligini, etuklik va kengligini... ko'rsatdim. Xayolimga shunday  
keladiki, turk xalqining so'z ustalari oldida ulug' vazifani bajardim, buning blan ular o'z so'zlari iboratlari  
haqiqatidan va o'z til va lug'atlari kayfiyatidan xabardor bo'ldilar va forsigo'ylarning nutq va so'z bobida  
qilib kelgan taKjna va sarzanishlaridan qutuldilar. Ular ham shuncha mehnat va mashaqqatlar blan yuzaga  
chiqarganim bu maxfiy ilmdan xabardor bo'lsalar, umidim shuki, bu faqirni yaxshi duo blan yod qilg'aylor va  
ruhimni aning blan shod qilg'aylor

Б†‘ Ruboiyda aytishicha, asarning yozilish tarixi jumodil-avval oyi chorshanba kuni, 905 hijriy yilidir.  
Bizning hozirgi hisobimizcha, 4 dekabrKj, 1499-nchi yil bo'ladi (oyning nechanchisi ekani ko'rsatilmagani uchun  
birinchi chorshyanba olindi).